**Umumiy qoidalari.** Chizmalarda o'lchamlarni o'lcham chizg'i ini ustiga yozilgan sonlar ko'rsatadi. O'lchamlar chiziqli va burchakliklarga bo'linadilar. Chiziqli o'lchamlar chizmalarda millimetrlarda qo'yiladi. Hunda o'lcham birligi ko'rsatilmaydi. Agar o'lcham sonlarini bosqqa

o'ichov birligida ko'rsatilsa (sm) u holda o'icham soni yoniga berilgan o'ichov birligi yoziladi yoki buyumga berilgan texnik talablarda bunga ko'rsatma beriladi. Chizmada burchak o'ichamlari gradusda, minutda va sekundda ko'rsatiladi va uni o'ichov birligi belgilanadi. Misol :  $30^\circ, 7'10''$ ,  $25^\circ 10' 30''$ . O'icham sonları o'nlik kasrlarda qo'yilishi mumkin. O'icham sonları oddiy kasrda qo'yishga ruxsat berilmaydi. Dyunda berilgan o'icham sonlarını kasrda qo'yish mumkin.

Buyumning umumiyo o'ichamlarini uni tayyorlash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Buyumlar ularning o'ichamlari asosida tayyorlanganadi. Shuning uchun ham chizmalarida detal o'ichamlarini to'g'ri qo'yish va o'zaro bog'lab borish katta ahamiyatga ega. Agar o'ichamlar noto'g'ri qo'yilgan bo'lsa, tayyorlangan buyum yaroqsiz bo'lib qoladi. Chizmalarida o'ichamlarini qo'yishda quyidagi larni hisobga olish tavsya etiladi:

✓ detalning har bir o'ichami geometrik va texnologik jihatdan juda to'g'ri, to'ilq ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'langan bo'lishi, ya'ni detalni tayyorlashdagi belgilash, ishlov berish, nazorat qilish kabi usullar hisobga olinishi kerak;

✓ chizmaga qo'yilayotgan o'icham shunday bo'lishi lozimki, detalni tayyorlaydigan mutaxassis uni qynalmay o'qiy olishi kerak;

✓ o'ichamlar qo'yilayotganda yondosh detallarni ham hisobga olish kerak;


✓ o'ichamlami texnologik va konstrukturlik talablarini qondiradigan

ba'zadan boshlab qo'yish lozim;

✓ o'ichamlar qo'yish va ularni o'zaro bog'lashda xatoga yo'i qo'ymaslik uchun standart belgilangan qoidalarni mukammal o'rganib,

ularga amal qilish lozim;

✓ o'ichamlar chizmalarда o'icham chiziqlari va o'icham sonları bilan ko'rsatiladi. O'icham chiziqlarida ko'rsatkichlar bitta chizmadagi barcha o'cham chiziqlari uchun bir xil bo'lishi lozim. Ko'rsatkichning shakli va elementlarining taxminiyo o'ichamlari 2.2.2- chizmada ko'rsatilgan.



2.2.2-chizma

✓ o'icham chiziqlari detal konturiga parallel chizilib, chiqarish chiziqlariga perpendikulyar bo'lishi lozim (2.2.2-chizma);

✓ o'icham va chiqarish chiziqlari iloji boricha kesishmasligi lozim.

✓ o'icham chiziqlarini iloji boricha chizma konturidan tashqarida chizish lozim;


✓ o'icham chiziqlari chizma konturidan va unga parallel o'tkazilgan ikkinchi o'icham chizig'i oralig'i 6...10 mm.da olinishi lozim (2.2.2-chizma);

✓ o'icham sonları chizmaning qanday mashtabda va qanchalik aniq chizilishidan qat'iy nazar, tasvirlangan buyumning haqiqiy o'ichamini ifodalashi kerak;


✓ chizmada chiziqli o'ichamlar mm hisobida, o'ichov birligi mm ko'rsatilmagan holda qo'yiladi;

✓ chizma chizishda ishtirok etmaydigan, lekin chizmani o'qish uchun ancha quaylik tug'diradigan o'ichamlar ma'lumot o'ichamlari deviladi. Bunday o'ichamlarga yopiq zanjir usulida qo'yiladigan o'ichamlardan bирортаси detal elementining vaziyatini ko'rsattuvchi o'ichamlar, yig'ish chizmasidagi ayrim konstruksiya elementlarining eng chekti vaziyatlarini uniqlovcchi o'icham va shu kabilar kiradi. Chizmada ma'lumot o'ichamlari "uniquelovchi o'icham" va shu kabilar kiradi. Chizmada ma'lumot o'ichamlari "yulduzcha" bilan belgilanib, texnik talablarda esa "Ma'lumot o'chamlari" deb yozib qo'yiladi (2.2.3-chizma);

✓ simmetrik detallarning ko'rinishi to'la chizilmagan bo'lsa, o'lcham chiziqlari markaziy simmetrik o'qdan biroz o'tkazib, uzb qo'yiladi (2.2.6-chizma);



2.2.3-chizma




2.2.4-chizma


✓ burchaklarga o'lcham qo'yishda shu burchak uchidan chiziladigan yoydan foydalaniildi. Chiqarish chiziqlari esa radial yo'nalishda chiziladi (2.2.4-chizma, a), aylana yoyining o'lchamini ko'rsatish 2.2.4-chizma, b da berilgan;

✓ profili egi chiziqli detallarning o'lchamlari 2.2.5-chizmadagidek qo'yiladi;

✓ yumaloqlanadigan burchak uchlarini yoki yumaloqlash yoyi markazi koordinatalarini ko'rsatish zarur bo'lsa, o'lcham yumaloqlanadigan burchak tomonlari kesishgan nuqtadan yumaloqlash yoylari markazidан chiqarib qo'yiladi (2.2.6-chizma);



2.2.5-chizma




2.2.7-chizma

✓ aylana to'la yoki qisman chizilgan bo'lishidan qat'iy nazar, uning o'lcham chiziq'ini aylana markazidan o'kkazib yoki to'liq ko'rsatish (2.2.7-chizma);

✓ chizmada buyumming bir qismi uzb ko'rsatilsa, o'lcham chiziq'i uzilmasdan to'liq ko'rsatiladi (2.2.8-chizma);

✓ kontur yoki chiqarish chiziqlari o'zar joylashib, o'lcham chiziq'i chiqarish chiziq'ini uzb tasvirlash mumkin (2.2.8-chizma);

✓ o'lcham chiziqlariga strelkalarni qo'yish uchun joy joyga nuqta qo'yiladi yoki chiziqlcha chiziladi (2.2.9-chizma);



2.2.8-chizma

✓ agar strelkalar qo'yish uchun o'lcham chiziq'ining uzunligi yetarli bo'lmasa, u holda, o'lcham chiziqlariga strelkalar tashqi tomonidan qo'yiladi (2.2.9-chizma);


✓ diametr o'lchami aylana ichida ko'rsatilgan hollarda o'lcham soni o'lcham chiziq'i o'rtasidan bir tomonga siljtiladi (2.2.9-chizma, a). Bu yerda o'lcham soni markaz chiziqlarning o'zar joyiga to'g'ri kelmasligi lozim;

✓ har doim diametr o'lchamini ko'rsatuvchi son oldiga "O" belgisi radius o'lchamini ko'rsatuvchi son oldiga "R", kvadrat o'lchamini soni oldiga "□" belgisi qo'yilishi shart (2.2.10-chizma);

# $\Phi 2 R 4 \square 5$


## 2.2.10- chizma

- ✓ bir nechta parallel o'icham chiziqlariga o'ichamlar qo'yilganda, o'icham sonlarini shaxmat tartibida joylashtirish lozim (2.2.11- chizma);




2.2.11- chizma

- ✓ chiziqli o'ichamlarning chiziqlari har xil qiyalikda chizilgan bo'sa, o'icham sonları 2.2.12- chizmada ko'rsatilgandek qo'yildi. Shtrixlangan zonada ( $30^\circ$  ni tashkil qildi) o'icham sonlarini qo'yish mumkin emas, ya'ni taqiqlanadi;




2.2.12- chizma




2.2.13- chizma

- ✓ burchaklarning o'ichamida ham  $30^\circ$  li shtrixlangan zonada o'icham sonlari va qolgan burchak o'ichamlari 2.2.12- chizma, b dagidek bo'ladi; diametrlari kichik aylanalarga va oralig'i kichik bo'lgan parallel chiziqlarga o'ichamlar 2.2.13- chizmadagi kabi qo'yildi;
- ✓ o'icham sonlarini qo'yishda kontur chiziq va o'icham chiziqlari uzilmaydi, o'q va markaz chiziqlarining o'zaro kesishish joyiga qo'yilmaydi, o'icham qo'yilganda markaz chiziqlariga to'g'ri kelib qolsa,




2.2.14- chizma

- ✓ aylana yoyi markazi o'mini aniqlovchi o'ichamlarni ko'rsatish talab qilinsa, u holda radiusning o'icham chizig'ini burchaklari  $90^\circ$  ga teng bo'lган simiq chiziqliq alma shartib chizish mumkin (2.2.15- chizma);



2.2.15- chizma

- ✓ bir markazdan bir nechta radiuslar o'kazilganda har qanday ikki va undan ortiq radius chiziqlari bitta to'g'ri chiziqliq yotmasligi lozim (2.2.16- chizma, a);




2.2.16- chizma


- ✓ tashqi va ichki yumaloqlash radiuslarining o'ichamlari kichik bo'lqanda 2.2.16- chizma, b, c dagidek qo'yildi.
- ✓ yumaloqlash yoki bukiilish joylardagi yumaloqlash radiuslari bir xil bo'lib, ular ko'p uchraydigan bo'sa, chizmaning bo'sh joyiga

u uzib qo'yildi va o'icham sonları yozildigan joy shtrixlanmaydi (2.2.14- chizma, a, b);

✓ detadagi oyiq, chiqiq, teshik kabi joylarga tegishli o'ichamlarni shu elementning geometrik shakli qaysi ko'rinishda to'la ko'rinadigan bo'sa, o'sha yerga to'plab qo'yish zarur (2.2.14- chizma, c);




2.2.16- chizma



2.2.16- chizma

“Ko’rsatilmagan radius o’lchamlari R 1,5 mm” deb yozib qo’yiladi (2.2.17- chizma);  
 ✓ shar (sfera) ni belgilash uchun diametr yoki radius o’lchami oldiga yoxud ostiga “Sfera” so’zi qo’shib yoziladi (2.2.18- chizma);



2.2.17- chizma


2.2.18- chizma

✓ qiyalikni ifodalovchi soni oldiga qiyalikni ifodalovchi belgi yo’yiladi (2.2.19- a chizma), bunda belgining uchi qiyalik tomon oldiga uchi tomon qaratilgan belgi qo’yiladi (2.2.19- b chizma);


✓ 45° burchak bilan tayyorlangan faskalar o’lchamlari 1,6, 1,8- chizma, a dagidek qo’yiladi.

Bunday faskaning o’lchami 1 mm va undan kichik bo’lsa, ular chizmada tasvirlanmasligi mumkin, lekin ularning o’lchamlari faska yasaladigan qirradagi chiqariladigan chiziqning tochkasiga yozib qo’yiladi (2.2.20- chizma, b). 30° burchakli faska o’lchamida burchak va faska balandligi qo’yiladi (2.2.20- chizma, c), yoki ikkita katetlarning o’lchamlari beriladi (2.2.20-

chizma, d);




2.2.19- chizma



2.2.21- chizma


✓ tesliklar aylana bo'yicha bir-biridan baravar uzoqlikda joylashgan bo'lsa, ularning markazlari orasidagi o'lchamlari qo'yilmaydi, faqat tesliklarning o'lchamiga ularning soni qo'shib ko'rsatiladi (2.2.22- chizma);





2.2.22- chizma

✓ bir xil diametri teshiklarning o'lchamlarini qo'yishda ulardan bittasi chizilib, uning o'lchami, soni ko'rsatiladi (2.2.23- chizma, a), qolganlarining markaz chiziqlari belgilanadi;

✓ faska, teslik va shunga o'xshash elementlar sonini 2.2.21- chizmadagidek ko'rsatish mumkin;



2.2.23- chizma




2.2.23- chizma


✓ bitta detalda bir xil teshiklар mayjud bo'lsa, bu elementlardan bittasini o'ichami va cheki o'mi o'ichami ko'rsatilib, qolganlarini oralig'lari sonining oralig'lari o'ichamiga ko'paytmasi ko'rinishida belgilanadi (2.2.23- chizma, b);

✓ umumiy bazadan ko'plab o'icham qo'yiladigan bo'lsa, chiziqli va burchak o'ichamlari 0 belgidan umumiy bir o'icham chizig'i o'tkaziladi va o'icham sonlari chiqarish chiziqlari yo'nalishida ularning uchlariga qo'yiladi (2.2.24- chizma, a, b);

✓ detal bitta ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa, uning qalinligi o'ichami soni oldiga s, uzunligi o'ichami soni oldiga l harfi yoziladi (2.2.25- chizma);




2.2.24- chizma




2.2.25- chizma

✓ murakkab shaklli silindrik buyumning silindr diametrlariga 2.2.26- chizmadagidek o'icham qo'yishga standart ruxsat ettiladi;

✓ chizmadagi vertikal chiziqlari ustiga qo'yilgan o'icham sonlarini o'qish va ularni yozish qulay bo'lishi uchun chizmani soat strelkasi yo'nalishida chapdan o'ngga 90° ga burib o'qiladi.  
Chizmada har bir o'icham bir marta ko'rsatiladi. Detalning eng katta o'ichamlarini, ya'ni kengligi, balandligi va eni yoki qalinligini 5, 10, 76 o'ichamlar.




2.2.26- chizma




2.2.27- chizma

✓ kichik diametri teshikning o'qi bo'yicha qirqimdagи tasviri bo'lmasa, u hoda o'ichamlar 2.2.27- chizmadagidek qo'yiladi. dasosiy (eshik diametri, h-teshik chuqurligi, c-faska balandligi;

✓ diametri 2 mm va undan kichik bo'lgan tashiklarning o'qi bo'yicha qo'yimdagи tasviri berilmagan bo'lsa, o'ichamlari 2.2.28-chizmadagidek kodallashtirib tasvirlanadi. Bunda berk teshik o'ichami teshikdan chiqarilgan chiqarish chizig'ining tochkasiga dxh ko'rinishida qo'yiladi (2.2.28- chizma);



2.2.28- chizma



2.2.29- chizma


Chizmalarga o'ichamlar qo'yish usullari bilan darslar davomida tanishib va o'rganib boriladi.

## O'LCHAM QO'YISH QOIDALARI

1. Detalni tayyorlash uchun zarur bo'lgan hamma o'ichamlar chizmada berilishi kerak. Detal taylorlanishida, o'ichamlarni bioriasi ikkinchisini hisobidan aniqlammasligi kerak, masalan, aylananing bir qismi berilgan bo'lsa, radius o'ichami qo'yiladi, to'liq aylana bo'lsa diametr o'ichami qo'yiladi. O'ichamlar faqat bir o'ichov birligida millimetrdagi ko'sratilishi kerak. Millimetr o'cho'v birligi har bir raqamga yozilmaydi, lekin umumiy eslatmada quyidagicha yozib qo'yiladi "hamma o'ichamlar mm hisobida".<sup>5</sup>

2. Har bir o'icham faqat bir marotaba berilishi kerak. Bir ko'rinishda berilgan o'icham, boshqa ko'rinishda qaytarilmasligi kerak, masalan, FBda berilgan gorizontal uzunlik, CDda qaytarilmasligi kerak, yoki ABDa berilgan vertikal o'icham, yondan ko'rinishda qaytarilmasligi kerak.


3. O'ichamlar, odatta ko'rinishlardan tashqarida, detailing biror elementi qaysi ko'rinishda yaqqol ko'rinsa, shu ko'rinishda o'icham berilishi kerak. Iloji boricha, o'ichamlar ikkita ko'rinishda joylashishi kerak. 2.2.30-chizma (a)da o'ichamlar noto'g'ri joylashtirilgan va (b)da to'g'ri joylashtirilgan.



2.2.30-chizma

✓ Tekis shaklga o'icham qo'yishga na'muna keltirib o'tilgan 2.2.31-chizma. 2.2.31-chizma (a)da tekis shakldagi chizma berilgan. 2.2.31-chizma (b)da esa o'icham qo'yilgan holati berilgan.

Yugor'dagi qoidalar asosida biz o'zimiz uchun berilgan har qanday chizmalarga o'icham qo'yib bera olishimiz kerak bo'ladi.



a)  
2.2.31-chizma

b)

**3. §. Nuqtaning oktantlarda proyeksiyalarini yasash.**  
**To'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati va epyurini qurish, haqiqiy uzunligi va proyeksiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchagini aniqlash.**

Muhim geometrik tushunchalardan biri – shakllarni tasvirlashdir. Geometrik tasvirlash bu biror  $\Phi$  shaklning nuqtalari bilan ikkinchi  $\Phi$  shaklning nuqtalari orasida bir qiymatli moslik o'matishdir.

Chizma geometriyada uch o'ichamli  $R_3$  fazoning (tekislikning) har bir nuqtasini ikki o'ichamli  $R_2$  fazoning (tekislikning) har bir nuqtasiga aniqlash. Chizma geometriyani fazoni tekislikda aks etiruvchi grafik tasvirlash geometriyasi deb yuritish mumkin.

Geometrik fazoni nuqtalar to'plami deb qaralib, ularni proyeksiyalash yo'lli bilan tekislikda aks etiriladi. Masalan, fazoda biror S nuqta tanlab, shu nuqtani fazoning hamma nuqtalari bilan birlashtiriladi. Unda markazi

<sup>5</sup> M.B.Shah, B.C.Rana, Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India, mazmunitdan foydalanildi.




S nuqtada bo'lgan to'g'ri chiziqlar dastasi hosil bo'ladi. Shu fazoda biror P tekislikni kiritamiz. Unda S markazli chiziqlar dastasi bilan P tekislik kesishib, nuqtalar to'plamini hosil qiladi. Tekislikdagi bu nuqtalarni fazodagi nuqtalarning tasviri (proyeksiyasi) deb yuritiladi. Bunda fazodagi nuqtalari bilan P tekislik nuqtalar orasida bir qiymatli moslik o'matiladi. Agar S markazli chiziqlar dastasi fazosiga biror sirt kiritilsa, u holda bu sirtda fazodagi nuqtalarning tasviri hosil bo'ladi va fazo nuqtalari bilan sirt nuqtalari orasida bir qiymatli moslik o'matiladi.

Chizma geometriyada fazodagi shakllar markaziy yoki parallel proyeksiyalash usullari bilan biror tekislikda tasvirlanadi. Bu tekislikni proyeksiyalar tekisligi deb yuritiladi. Shakllarning proyeksiyalar tekisligidagi tasvirini yasash esa ma'lum qonun va qoidalarga asoslanib bajariladi.

### Markaziy proyeksiyalash usuli.

Markaziy proyeksiyalash usuli geometrik shakllarni tekislikda proyeksiyalashning umumiyligi holdidi.

Markaziy proyeksiyalashda proyeksiyalar markazi S va proyeksiyalar tekisligi P beriladi (2.2.32-chizma). S va P sistemasida fazodagi biror A nuqta berilgan bo'lisin. A nuqtani S markaz orqali proyeksiyalar tekisligi P ga proyeksiyalaymiz. Buning uchun S markaz bilan A nuqtani to'g'ri chiziqlor orqali birlashtirib, uni davom ettiramaniz. Hosil bo'lgan SA proyeksiyalovchi nur proyeksiyalar tekisligi P bilan  $A_p = SA \cap P$  (ya'ni  $A_p = SA \cap P$ ). Bunda  $A_p$  nuqta A nuqtaning S markaz bo'yicha proyeksiyalar tekisligidagi markaziy proyeksiyasi deb yuritiladi.



Fazodagi ikkinchi biror ixtiyoriy B nuqta ham A nuqta singari proyeksiyalanib,  $SB \cap P = B_p$  nuqtaning P proyeksiyalar tekisligidagi vaziyati aniqlanadi. Agar biror S nuqtani P proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalovchi SS nur P tekislikka parallel bo'lsa (SSIP), u holda bu nur P tekisligi bilan cheksiz uzoqlikda kesishib,  $S_{P^{\infty}}$  xosmas nuqtani hosil qiladi. SA, SB, SS,... to'g'ri chiziqlar proyeksiyalovchi nurlar deb yuritiladi.

Fazodagi biror nuqtalar to'plamini proyeksiyalash markazi S orqali P proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalanganda S markazli to'g'ri chiziqlar dastasi hosil bo'ladi. Bu dastani proyeksiyalar tekisligi P bilan kesishuvidan hosil bo'lgan nuqtalar to'plami fazodagi ma'lum bir nuqtalar yuritiladi.

Proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalanganda S markazli to'g'ri chiziqlar chizma) BS kesma S markaz orqali proyeksiyalar tekisligi P ga proyeksiyalanganda SBS proyeksiyalovchi tekislik hosil bo'ladi. Bu proyeksiyalovchi tekislik P bilan  $B_p S_p$  kesma bo'yicha kesishadi.  $B S \in a$  bo'lgani uchun  $B_p S_p \in a_p$ , bo'ladi.

to'plamining tasviri bo'ladi. Masalan, ABD uchburchakning markaziy proyeksiyasi  $A_p B_p D_p$  uchburchak bo'ladi (2.2.33-chizma).

Proyeksiyalar tekisligining ostida joylashgan E nuqtanining  $E_p$  proyeksiyasi  $SE \cap P = E_p$  bilan aniqlanadi. Proyeksiyalar tekisligida yotgan K nuqtaning  $K_p$  markaziy proyeksiyasi nuqtaning o'zi bilan ustma-ust ( $K = K_p$ ) tushadi.

Markaziy proyeksiyalash konusli yoki qutbli proyeksiyalash, yoxud perspektiva deb ham yuritiladi. Masalan, markaziy proyeksiyalash apparatida biror  $m$  egri chiziqlar berilgan bo'lisin (2.2.34-chizma).  $m$  egri chiziqlarning nuqtalari to'plamini proyeksiyalar tekiligiga S markaz orqali proyeksiyalansa, uning proyeksiyasi  $m_p$  egri chiziqlar hosil bo'ladi. U holda S markazdan o'tuvchi proyeksiyalovchi nurlar to'plami konus sirtini hosil qiladi.

Markaziy proyeksiyalashda proyeksiyalash markazi va buyumanning proyeksiyasiga qarab uning fazodagi vaziyatini aniqlab bo'lmaydi. Markaziy proyeksiyalashda proyeksiyalash markazi va buyumanning vaziyatini aniqlab bo'lmaydi.

### Markaziy proyeksiyalashning xossalari

Markaziy proyeksiyalashda geometrik shakllar quyidagicha tasvirlanadi.

**I-xossa.** Nuqtaning markaziy proyeksiyasi nuqta bo'ladi.

**2-xossa.** SA nuda yotuvchi A,  $A_1$ ,  $A_2$ ,  $A_3$ ,... nuqtalarning markaziy proyeksiyalar  $A_p$  nuqta bilan ustma-ust tushadi (2.2.35-chizma).


**3-xossa.** Proyeksiyalash markazidan o'maydigan to'g'ri chiziqlarning proyeksiyasi kesma bo'ladi.

Bitor  $a$  to'g'ri chiziqlar BS kesmasi orqali berilgan bo'lisin (2.2.35-chizma) BS kesma S markaz orqali proyeksiyalar tekisligi P ga proyeksiyalanganda SBS proyeksiyalovchi tekislik hosil bo'ladi. Bu proyeksiyalovchi tekislik P bilan  $B_p S_p$  kesma bo'yicha kesishadi.  $B S \in a$  bo'lgani uchun  $B_p S_p \in a_p$ , bo'ladi.


Proyeksiyalash markazi S dan o'tuvchi to'g'ri chiziqning markaziy proyeksiyasi nuqta bo'ladi. Masalan, DE to'g'ri chiziq kesmasining markaziy proyeksiyasi  $D_P \equiv E_P$  nuqta bo'ladi (2.2.35-chizma).

**4-xossa.** S markazzdan o'tmaydigan tekislikning markaziy proyeksiyasi tekislik bo'ladi. Masalan, ABS uchburghach tekisligining markaziy nuqtalar to'plamini S markaz bo'yicha proyeksiyalar tekisligi P ga proyeksiyalanganda (2.2.36-chizma) SABS proyeksiyalovchi piramida xosil bo'ladi. Bu piramidaning proyeksiyalar tekisligi P bilan kesisuvidan  $A_P B_P S_P$  uchburghach hosil bo'ladi.

S markazzdan o'tuvchi tekislik va unga tegishli geometrik shakllarning markaziy proyeksiyalar bitta to'g'ri chiziqqa proyeksiyalanadi. Masalan, SAB tekisligi va unga tegishli F nuqtaning proyeksiyasi  $A_P F_P B_P$  kesmada bo'ladi (2.2.36-chizma).



2.2.36-chizma



2.2.36-chizma

**5-xossa.** Agar biror tekis shakl proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, uning proyeksiyasi o'ziga o'xshash shakl bo'ladi.

**6-xossa.** S proyeksiyalash markazidan o'tuvchi va proyeksiyalar tekisligi P ga parallel bo'lgan nurlar ustidagi nuqtalarning markaziy proyeksiyasi P ning xosmas chiziq'i ustida bo'ladi.

Markaziy proyeksiyalashda S markaz, proyeksiyalar tekisligi P va proyeksiyalanuvchi shaklning o'zaro vaziyatlariga ko'ra quyidagi xossalarni keltrish mumkin.

**7-xossa.** Proyeksiyalanuvchi shaklning proyeksiyalar markazi bilan proyeksiyalar tekisligiga nisbatan joylashuviga qarab uning proyeksiyasi o'ziga nisbatan katta yoki kichik bo'lishi mumkin.

#### Parallel proyeksiyalash usuli

Markaziy proyeksiyalashdagi S markazni biror yo'nalihsida cheksiz uzoqlashtirilsa, u holda SA, SB, ... proyeksiyalovchi nurlar o'zaro parallel bo'ladilar (2.2.37-chizma). Bunday proyeksiyalash parallel proyeksiyalash


deb yuritildi. Demak, parallel proyeksiyalashni markaziy proyeksiyalashning xususiy holi deb qarash mumkin.

Parallel proyeksiyalashda proyeksiyalar tekisligi P va proyeksiyalash yo'nalihi beriladi. P va S sistemasida fazodagi biror A nuqta berilgan bo'lin (2.2.37-chizma). Bu nuqtaning proyeksiyasini yassash uchun A nuqtadan s' yo'naliishga parallel qilib nur o'tkazildi. Bu nurning proyeksiyalar tekisligi P bilan kesisishgan nuqsti  $A_P$  bo'ladi.  $A_P$  nuqtani fazodagi A nuqtaning s' yo'naliish bo'yicha P dagi parallel proyeksiyasi deb yuritildi. Proyeksiyalar tekisligining ostida joylashgan fazodagi ixтийориё бирор B nuqtaning s' yo'naliish bo'yicha parallel proyeksiyasi  $B_P$  bo'ladi. Bunda B va A nuqtalarning proyeksiyalovchi nurlari o'zaro parallel bo'lib, fuqat ularning yo'naliishlari qarama-qarshidir. AA<sub>P</sub>, BB<sub>P</sub> to'g'ri chiziqlar proyeksiyalovchi nurlar deb yuritildi. Proyeksiyalar tekisligi P ga tegishli S nuqtaning proyeksiyasi shu nuqtaning o'zida bo'ladi. Fazodagi ixтийориё d to'g'ri chiziqni proyeksiyalar tekisligi P ga s' yo'naliish bo'yicha proyeksiyalash uchun shu to'g'ri chiziq ustidagi istalgan ikki D va E nuqtalar proyeksiyalar yasalsa kifoyadir (2.2.37-chizma). Bunda d to'g'ri chiziq nuqtalari orqali o'tuvchi parallel nurlar to'plami proyeksiyalovchi tekislikni hosil qiladi.


Parallel proyeksiyalashda s' proyeksiyalash yo'naliishning berilishi shartdir. Chunki s' proyeksiyalash yo'naliishi berilmagan holda ixtiyoriy A nuqtaning P proyeksiyalar tekisligidagi proyeksiyasini cheksiz ko'p hosil qilish mungkin.

Buyumning birligina parallel proyeksiyasi uning fazodagi ko'rinishi va uning o'chamlari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Buning uchun qo'shimcha shartlar berilishi lozim.

Parallel proyeksiyalashni silindrik proyeksiyalash deb ham yuritildi. Misaln, bitor m egri chiziq berilgan bo'lsin (2.2.38-chizma). Bu egri chiziq nuqtalaridan o'tuvchi s' proyeksiyalash yo'naliishiga parallel bo'lgan proyeksiyalovchi nurlar to'plami silindrik sirt hosil qiladi. Bu silindrik sirt proyeksiyalar tekisligi P bilan kesisib, m'egri chiziqni hosil qiladi.



2.2.37-chizma



2.2.38-chizma

### Parallel proyeksiyalash ikki xil bo'ladi:

- Qiyshiq burchakli parallel proyeksiyalash. Bunda S proyeksiyalash yo'nalishi P proyeksiyalar tekisligi bilan o'tkiz yoki o'tmas burchak tashkil qiladi.
- To'g'ri burchakli parallel proyeksiyalash. Bunda proyeksiyalash yo'nalishi S proyeksiyalar tekisligi P ga perpendikulyar bo'ladi.

### Parallel proyeksiyalashning xossalari

Geometrik shakllarni parallel proyeksiyalashning quyidagi xossalari mavjud:

**1-xossa.** Nuqtaning parallel proyeksiyasi nuqta bo'ladi.

**2-xossa.** Proyeksiyalovchi nurda yotuvchi barcha nuqtalarning proyeksiyalarini bitta nuqtada bo'ladi.

**3-xossa.** Proyeksiyalash yo'nalishiga parallel bo'lmagan to'g'ri chiziqning proyeksiyasi to'g'ri chiziq bo'ladi. Masalan, 1-8-rasmda  $S$  proyeksiya yo'nalishiga parallel bo'lmagan AB to'g'ri chiziq kesmasi proyeksiyalar tekisligi P ga parallel proyeksiyalangan. Bunda AB kesma nuqtalaridan o'tuvchi nurlar proyeksiyalovchi Q tekislikni hosil qiladi. Bu proyeksiyalovchi tekislik bilan P proyeksiyalar tekisligi  $A_pB_p$  kesma bo'yicha kesishadi.


Proyeksiyalash yo'nalishiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqning parallel proyeksiyasi nuqta bo'ladi. 2.2.39-chizma SD to'g'ri chiziq kesmasi proyeksiya yo'nalishi  $S$  ga parallel. Unda P dagi proyeksiyasi  $S_p \equiv D_p$  nuqta bo'ladi.

**4-xossa.** AB to'g'ri chiziq kesmasiga tegishli E nuqtaning parallel proyeksiyasi  $E_p$  shu to'g'ri chiziq proyeksiyasi  $A_pB_p$  kesmaning usida bo'ladi (2.2.39-chizma).


**5-xossa.** Agar nuqta to'g'ri chiziq kesmasini biror nisbatda bo'lsa, bu nuqtaning proyeksiyasi ham kesma proyeksiyasin shunday nisbatda bo'ladi.

Bitor S nuqta AB kesmani  $AS:SB=r:q$  nisbatda bo'lsa, unda  $S_p$  nuqta  $A_pB_p$  kesmani ham  $A_pS_p:S_pB_p=r:q$  nisbatda bo'ladi (2.2.40-chizma).

AB to'g'ri chiziq kesmasini  $S$  yo'nalish bo'yicha proyeksiyalar tekisligi P ga proyeksiyalaymiz. Bunda proyeksiyalovchi tekislik bilan proyeksiyalar tekisligi P kesishib,  $A_pB_p$  kesmani hosil qiladi. Unda 4-xossaga asosan  $S \in AB$  bo'lgani uchun  $S_p \in A_pB_p$  bo'ladi.



2.2.39-chizma



2.2.40-chizma

AB kesmaning proyeksiyalovchi tekislikdagi A va S nuqtalaridan  $AS_1 \parallel A_pB_p$  va  $SB_1 \parallel A_pB_p$  kesmalarni o'tkazamiz. Unda hosil bo'lgan  $AS_1$  va  $SB_1$ , uchburchaklar o'zaro o'xhash bo'ladi. Bu uchburchaklarning o'xhashligidan  $AS:AS_1=SB:SB_1$  yoki  $AS:SB=AS_1:SB_1$  bo'ladi.  $AS_1=A_pS_p$  va  $SB_1=S_pB_p$  bo'lgani uchun  $AS:SB=AS_1:S_pB_p=r:q$  bo'ladi.

**6-xossa.** To'g'ri chiziqlarning kesishuv nuqtasining proyeksiyasi ularning proyeksiyalarining kesishish nuqtasida bo'ladi. Ya'ni  $AB \cap SD = E$  bo'lsa,  $A_pB_p \cap S_pD_p = E_p$  bo'ladi (2.2.41-chizma).


Proyeksiyalash yo'nalishi bo'yicha AB va SD kesmalarining  $A_pB_p$  va  $S_pD_p$  proyeksiyalarini proyeksiyalar tekisligi P dagi proyeksiyalarini yusaymiz. Kesmalarni proyeksiyalovchi tekisliklar o'zaro  $EE_p$  to'g'ri chiziq bo'yicha kessadi, bunda  $EE_p \parallel S$  bo'lub,  $E$  nuqtani proyeksiyalovchi nuri bo'ladi. AB va SD kesmalarining kesishuvidan hosil bo'lgan E nuqtaning proyeksiyalar tekisligi P dagi proyeksiyasi  $E_p$  bo'ladi. 3-xossaga asosan  $E \in AB$  va  $E \in SD$  bo'lgani uchun  $E_p \in A_pB_p$  va  $E_p \in S_pD_p$  bo'lishi shart. Demak,  $E_p$  nuqta  $A_pB_p$  va  $S_pD_p$  kesmalar uchun umumiy nuqadir.

**7-xossa.** Parallel to'g'ri chiziqlarning tekislikdagi proyeksiyalar ham parallel bo'ladi. Agar  $AB \parallel SD$  bo'lsa,  $A_pB_p \parallel S_pD_p$  bo'ladi. 2.2.42-chizmada  $S$  yo'nalish bo'yicha AB va SD to'g'ri chiziq kesmalarining proyeksiyalar tekisligidagi  $A_pB_p$  va  $S_pD_p$  proyeksiyalar yasalgan. Hosil bo'lgan AB va SD to'g'ri chiziq kesmalarining proyeksiyalovchi tekisliklari proyeksiyalar tekisligi P bilan kesishganda  $A_pB_p \parallel S_pD_p$  kesmalar hosil bo'ladi.


**8-xossa.** Parallel to'g'ri chiziq kesmalarining nisbati bu kesmalar proyeksiyalarining nisbatiga teng bo'ladi. Ya'ni  $AB \parallel SD$  bo'lub,  $AB:SD=r:q$  bo'lsa,  $A_pB_p:S_pD_p=r:q$  bo'ladi (2.2.42-chizma). Bunda 3-xossaga asosan  $A_pB_p \parallel S_pD_p$  xosil bo'ladi. AB va SD to'g'ri chiziq kesmalarining proyeksiyalovchi tekisliklari  $AE(AE \parallel A_pB_p)$  va  $SF(SF \parallel S_pD_p)$  kesmalarini o'tkazamiz. U holda ABE va SDF uchburchaklarning parallelligi va

$o'xshashligidan AB:AE=SD:SF$  yoki  $AB:SD=AE:SF=q$  kelib chiqadi. Demak,  $AB:SD=A_PB_P:S_PD_P=q$  bo'ladi.

- Agar to'g'ri chiziq kesmasi proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmasa, uning proyeksiyasinining uzunligi o'zidan kichik bo'ladi, ya'ni  $A_PB_P < AB$  bo'lub,  $AB=A_PB_P/\cos \alpha$  bo'ladi. Bunda  $\alpha=AB^P$  (2.2.45-chizma).



2.2.41-chizma




2.2.42-chizma

**To'g'ri burchakli proyeksiyalash** bo'lса, bunday parallel proyeksiyalashni to'g'ri burchakli proyeksiyalash deyiladi

**To'g'ri burchakli proyeksiyalashni ortogonal proyeksiyalash deb ham yuritiladi.**


Ortogonal proyeksiyalashda proyeksiyalovchi nur yo'nalishi ko'satilmaydi. Masalan, proyeksiyalar tekisligi P va fazodagi biror A nuqta berilgan bo'lsin. A nuqtani P tekislikka ortogonal proyeksiyalash uchun A nuqtadan (2.2.43-chizma) perpendikulyar tushiriladi. Bu perpendikulyarning P tekislikdagi asosi  $A_P$  nuqta fazodagi A nuqtanining ortogonal proyeksiyasi bo'ladi.



2.2.43-chizma

To'g'ri burchakli proyeksiyalashda geometrik shakl fazoda proyeksiyalar tekisligiga nisbatan ixtiyoriy holatda joylashgan bo'lса, uning proyeksiyasida shaklning metrik (uzunligi, burchagi va boshqa) o'chamlari o'zgaradi. Masalan, ortogonal proyeksiyalashda to'g'ri chiziq kesmasining proyeksiyasi o'zidan kichik yoki teng bo'ladi:

- Agar to'g'ri chiziq kesmasi proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lса, uning proyeksiyasinining uzunligi kesmaning fazodagi uzunligiga teng bo'ladi (2.2.44-chizma).




2.2.44-chizma

Fazoda berilgan biror  $ABSD$  trapesiya (2.2.46-chizma) proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmasa, uning burchaktari va tomonlarining haqiqiy o'chamlari saqlanib qolmaydi. Lekin trapesiyaning  $A_PB_PS_PD_P$  proyeksiyasi orasidagi ayrim xususiyatlari o'zgarmaydi. Masalan, trapesiyaning bir-biriga parallel bo'igan  $AB$  va  $SD$  asoslarining  $A_PB_P$  va  $S_PD_P$  proyeksiyalarini ham o'zaro parallel bo'ladi. Geometrik shakllarning proyeksiyalanish jarayonida o'zgartagan xususiyatlari ularning **invariant assoslari** deb yuritiladi.


Ortogonal proyeksiyalashda biror shaklni barcha nuqtalaridan o'tuvchi nurlar o'zaro parallel bo'lub, ular berilgan geometrik shaklni proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalaydilar. Buyumning bitta ortogonal proyeksiyasi bilan uning fazodagi vaziyatini aniqlab bo'lmaydi. Buning uchun biror proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar bo'igan ikkinchi tekislikka buyumning tasvirini olish mumkin. Bu ikki proyeksiyalar tekisligidagi tasvirlar buyumning fazodagi vaziyatini aniqlaydi.

Ortogonal proyeksiyalash usuli texnik chizmalarini chizishda, inshootlarni loyihalashda eng ko'p qo'llanildi. Bu usul tasvirning yaxqolligini bermasa ham, grafik ishlarni qulayroq qilib, aniq bajarilishini ta'minlaydi va buyumlarning tekislikdagi tasvirlari orqali ularning o'chamlarini oson va qulay aniqlaydi.

Texnik chizmalarini tuzishda proyeksiyalanuvchi buyumni o'zaro perpendikulyar tekisliklarga nisbatan shunday joylashtirish kerakki, unda buyumning asosiy o'chamlari va elementlari qulay holda tasvirlansin. Uqiqat shundagina buyum tasvirlariga qarab uning fazodagi ko'rinishini tanavvur etish mumkin.



2.2.45-chizma



2.2.46-chizma

### Nuqtaning ikki o'zaro perpendikulyar tekisliklari uchun proyeksiyalarini

Biror buyumning tasviriga qarab uni o'qilishini ikkita o'zaro parallel bo'lmagan proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalash orqali ta'minlash mungkin.


Proyeksiyalar tekisliklarini o'zaro perpendikulyar vaziyatda tanlab olinishi buyum tasvirini o'qilishini osonlashtiradi.

O'zaro perpendikulyar bo'lgan ikki tekislik bir-biri bilan kesishib fazoni to'rt qismga – kvadrantlarga (choraklarga) bo'fadi. Fazoda horizontal vaziyatda joylashgan (2.2.47-chizma) H tekislik *gorizontal proyeksiyalar tekisligi*, vertikal joylashgan V tekislik *frontal proyeksiyalar tekisligi* deb ataladi. H va V proyeksiyalar tekisliklari o'zaro perpendikulyar bo'lib, ularning kesishgan Ox chizig'i *proyeksiyalar o'qi* deylildi. Bunda H va V tekisliklar *proyeksiyalar tekisliklari sistemasini* hosil qiladi.

Proyeksiyalar tekisliklari sistemasining bunday fazoviy modelida turli geometrik shakllar, shuningdek, detallar, mashina va inshootlarni joylashtirib, so'ngra ularning chizmalarini yasash katta noqulayliklar tug'diradi va zaruriyati ham bo'lmaydi.

Buyumlarning chizmalarini bajarishda bu tekisliklarning bir tekislikka joylashtirilgan (jipslashirilgan) tekis tasvirlaridan foydalaniladi. Shu maqsadda V proyeksiyalar tekisligi qo'zg'almasdan, H gorizontall proyeksiyalar tekisligini Ox proyeksiyalar o'qi atrofida pastga  $90^\circ$  ga aylantirib, V tekislik bilan ustma-ust tushirib jipslashiriladi (2.2.48-chizma). Natijada, H va V tekisliklarda bajarilgan barcha yasashlar asosiy chizma tekisligi sifatida qabul qilingan V frontal proyeksiyalar tekisligiga joylashtiriladi. Bunda nuqta yoki geometrik shaklling bitta tekislikda joylashtirilgan ikki – gorizontal va frontal tasvirlari –*tekis chizma* yoki *kompleks chizma – epyur* hosil qilinadi. Bu usulni birinchi marta fransuz geometri Gaspar Monj (1746-1818) tavsya etgan. Shuning uchun bu tekis chizmani Monj chizmasi deb ham yuritiladi.

Amalda geometrik shakllarning to'g'ri burchakli proyeksiyalarini yasashda asosan proyeksiyalar o'qilaridan foydalaniadi. Shuning uchun chizmada proyeksiyalar tekisliklarining konturini tasvirlash shart emas (2.2.49-chizma).



2.2.47-chizma

2.2.48-chizma

2.2.49-chizma


Ma'lumki, barcha buyumlar nuqtalar to'plamidan tashkil topgan. Shuning uchun proyeksiyalashni nuqtadan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Biror nuqta yoki geometrik shakl fazoning turli choraklarda joylashuvni mumkin.

**Birinchi chorakda joylashgan nuqtaning chizmasi.** Fazodagi A nuqta birinchi chorakda joylashgan bo'lsin (2.2.50-chizma). Uning H va V tekisliklari uchun proyeksiyalarini yasash uchun bu nuqtadan mazkur tekisliklarga perpendikulyarlar o'tkazamiz va ularning bu tekisliklar bilan kesishish nuqtalarini aniqlaymiz. Faraz qilaylik, A nuqtadan V tekislikka tushirilgan perpendikulyarning asosi A' bo'lsin. A nuqtadan V tekislikka tushirilgan perpendikulyarning asosi A'' ni aniqlash uchun A' dan Ox o'qiga perpendikulyar o'tkazamiz va A<sub>x</sub> nuqtani aniqlaymiz. V tekislikka tushirilgan perpendikulyarlar bilan Ox o'qidagi A<sub>x</sub> nuqtadan o'tkazilgan perpendikulyar bilan kesishitirib A'' nuqtasini topamiz.

A nuqtadan H va V tekisliklarga o'tkazilgan perpendikulyarlarning A' va A'' asoslarini A nuqtaning *to'g'ri burchakli proyeksiyalarini* deb yuritiladi. Bu yerda A' – A nuqtaning *gorizontal proyeksiyasi*, A'' – uning *frontal proyeksiyasi* deb ataladi va A(A',A'') ko'rinishda yoziladi. Shakldagi AA' va AA'' chiziqlar *proyeksiyalovchi nurlar* yoki *proyeksiyalovchi chiziqlar* deylildi.

A nuqtaning chizmasini tuzish uchun tekisliklarning fazoviy modelini yuqorida qayd qilingan qoidaga muvofiq V tekislikka jipslashiramiz (2.2.51-chizma). Bunda A nuqtaning A'' frontal proyeksiyasi V tekislikda bo'lgani uchun uning vaziyati o'zgarmay qoladi. Gorizontal A' proyeksiyasi H tekislik bilan Ox o'qi atrofida pastga  $90^\circ$  ga buriladi va V tekislikning davomida jipslashadi. Natijada, A nuqtaning A' gorizontal linda A'' frontal proyeksiyalarini Ox o'qiga perpendikulyar bo'lgan bitta

chiziqda joylashadi (2.2.52-chizma). Bunda  $A'A'' \perp Ox$  bo'lib, uni proyeksiyalarni bog'lovchi chiziq deb yuritiladi.




2.2.50-chizma

2.2.51-chizma      2.2.52-chizma

Fazoning I choragida joylashgan har qanday nuqtaning gorizontall proyeksiyasi  $Ox$  o'qining ostida, frontal proyeksiyasi uning yuqorisida joylashgan bo'lib, ular  $Ox$  o'qiga perpendikulyar bo'lgan bitta proyeksiyalarni bog'lovchi chiziqda yotadi.

**Proyeksiyalar tekisligida va koordinatlar o'qida joylashgan nuqtalarning chizmalarini**. Fazoda biror nuqta proyeksiyalar tekisligida yoki proyeksiyalar o'qida joylashishi mumkin. Masalan,  $A \in H$  bo'isin (2.2.53-chizma). Bunda  $A$  nuqtaning gorizontal proyeksiyasi  $A'$  nuqtaning o'ziga ( $A \equiv A'$ ), frontal proyeksiyasi  $A''$  esa  $Ox$  o'qiga proyeksiyalarni o'qida ham (2.2.54-chizma). Shuningdek, nuqta  $Ox$  proyeksiyalar o'qida ham joylashishi mumkin. Masalan,  $B \in Ox$  bo'lsa, bu nuqtaning  $B'$  gorizontal va  $B''$  frontal proyeksiyalar shu  $B$  nuqtaning o'ziga proyeksiyalari shu  $B'$  va  $B''$  bo'lgan (2.2.54-chizma).



2.2.53-chizma

2.2.54-chizma

Turli choraklarda joylashgan nuqtalarni  $H$  va  $V$  proyeksiyalar tekisliklariغا proyeksiyalash va ularning chizmalarini tuzishdan quyidagi nulosalarni chiqarish mumkin:

▶ Nuqtaning fazodagi vaziyatini uning ikki ortogonal proyeksiyasi  $(O)$  la aniqlaydi. Haqiqatan ham,  $A$  nuqtaning berilgan  $A'$  gorizontal va  $A''$  horizontall proyeksiyalardan perpendikulyar chiqarilsa, ularning kesishish nuqtasi  $A$  nuqtaning fazodagi vaziyatini aniqlaydi (2.2.50-chizma).

▶ Fazodagi har qanday nuqtaning gorizontal va frontal proyeksiyaları  $Ox$  o'qiga perpendikulyar bo'lgan bir bog'lovchi chiziqlar joylashadi. Masalan,  $A$  nuqtaning (2.2.52-chizma) chizmasini yasash uchun  $H$  tekislik V tekislik bilan jipslashirilganda  $A'A_x \perp Ox$  va  $A''A_x \perp Ox$  bo'lgani uchun bu nuqtaning  $A'$  va  $A''$  proyeksiyaları  $Ox$  o'qiga perpendikulyar bo'lgan bir to'g'ri chiziqlada bo'lib qoladi.

▶ Fazodagi har qanday nuqtaning  $H$  va  $V$  proyeksiyalar tekisliklariidan uzoqqliklarini nuqta gorizontal va frontal proyeksiyalarning  $Ox$  o'qigacha bo'lgan masofalari aniqlaydi. Haqiqatan,  $A$  nuqtadan  $H$  tekislikkacha bo'lgan masofa (2.2.50-chizma)  $A\Lambda = A''A_x$  va  $V$  tekislikkacha bo'lgan masofa  $\Lambda\Lambda'' = A'A_x$ . Demak,  $A$  nuqtaning  $H$  tekislikkacha bo'lgan masofasini  $A''A_x$  va  $V$  tekislikkacha bo'lgan masofani  $A'A_x$  masofalar aniqlaydi.

#### AB kesmanining birinchi oktantdagi proyeksiyasi

Koordinatalari berilgan  $AB$  to'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to'la tahvil qilinsin (kesma uchlari I oktanta joylashgan). (2.2.55-chizma).

#### Oktant

Uchta o'zaro perpendikulyar tekisliklarning fazoni 8 ta bo'lakka bo'lishi.


**Masalan yechimi.** Fazodagi  $AB$  to'g'ri chiziq kesma uchlarning  $A$  ( $40, 80, 60$ ) va  $B$  ( $80, 40, 40$ ) nuqtalar koordinatalari berilgan bo'isin (2.2.55-chizma).  $A$  va  $B$  nuqtalarning  $Ox, Oy, Oz$  o'qlardagi koordinatalari o'qilariga  $A$  nuqtaning berilgan koordinatasi bo'yicha mos ravishda  $40 mm$  ( $A_x$ ),  $80 mm$  ( $A_y$ ),  $60 mm$  ( $A_z$ ) masofalari o'chlab qo'yildi hamda  $A_x, A_y, A_z$  nuqtalar aniqlanadi.  $Ax$  nuqtadan  $Oy$  va  $Oz$  o'qilariga parallel bog'lovchi to'g'ri va  $Oz$  o'qilariga,  $Az$  nuqtadan  $Oy$  o'qilariga parallel bog'lovchi to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Bu bog'lovchi chiziqlar mos ravishda perpendikulyar

kesishib,  $A$  nuqtanining gorizontall ( $A'$ ), frontal ( $A''$ ) va profil ( $A'''$ ) proyeksiyalarini beradi.

$A$  nuqtanining fazodagi o'mini aniqlash uchun  $A'$  dan  $Oz$  ga,  $A''$  dan  $Oy$  ga,  $A'''$  dan  $Ox$  ga parallel chiziqlar o'tkazildi. O'tkazigan chiziqlar o'zaro yagona nuqtada kesishib, fazodagi  $A$  nuqtanining o'mini aniqlaydi.

$B$  nuqtanining  $B'$  (gorizontal),  $B''$  (frontal),  $B'''$  (profil) proyeksiyalarini,  $B$  nuqtani fazodagi o'mni huddi  $A$  nuqtaniki kabi berigan koordinatasi asosida aniqlanadi.

Fazodagi  $A$  va  $B$  nuqtalar tutashtililib,  $AB$  kesmaning fazodagi o'mni hosil qilinadi (qizil rangda).  $A$  va  $B$  nuqtalarning aniqlangan bir nomli proyeksiyalarini, ya'ni  $A'$  va  $B'$ ,  $A''$  va  $B''$ ,  $A'''$  va  $B'''$  nuqtalar o'zaro tutashtiliradi (ko'k rangda). Natijada  $A'B'$ ,  $A''B''$  va  $A'''B'''$  kesmalar hosil bo'lib, ular fazodagi  $AB$  kesmaning mos ravishda gorizontal, frontal va profil proyeksiyalarini hisoblanadi.



Endi  $AB$  kesma tahil qilinadi. To'g'ri chiziq kesmasining to'liq tahili degonda uning haqiqiy uzunligini, proyeksiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchaklarini aniqlash tushuniladi. Bu jarayon epyurda bajarilib, unda  $AB$  kesmani tahil qilish uchun kesma uchlarning gorizontal, frontal, profil proyeksiyalar tekisliklaridan uzoqliklarining algebraik ayrimasi  $\Delta z/\Delta z = A_z - B_z = 60 - 40 = 20$ ,  $\Delta y/\Delta y = A_y - B_y = 80 - 40 = 40$  masofalar belgilanadi. Kesmaning har bir proyeksiyasini biror uchi ( $A'$ ,  $A''$ ,  $A'''$  yoki  $B'$ ,  $B''$ ,  $B'''$ ) dan unga perpendicular to'g'ri chiziqlar chiqarilib va bu chiziqa mos ravishda  $\Delta z$ ,  $\Delta y$  va  $\Delta x$  masofalar o'chab qo'yildi. Natijada  $A_0$  yoki  $B_0$  nuqta (kesmaning qaysi uchidan unga perpendicular yoki  $B_0$  nuqta kesmaning ikkinchi uchi ( $B'$ ,  $B''$ ,  $B'''$  yoki  $A'$ ,  $A''$ ,  $A'''$ ) bilan tutashtiliradi. Bu tutashtrishdan hosil bo'lgan  $B'A_0$ ,  $A''B_0$ ,  $A'''B_0$  kesmalar fazodagi  $AB$  kesmaning  $H$ ,  $V$ ,  $W$  proyeksiyalar tekisliklarda aniqlangan haqiqiy uzunligi bo'ladi va ular o'zaro teng bo'lishi shart (qizil rangda).

$AB$  kesmaning proyeksiyalarini va haqiqiy uzunliklari orasidagi  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  burchaklar uning proyeksiyalar tekisliklari ( $H$ ,  $V$  va  $W$ ) bilan hosil qilgan burchaklarining haqiqiy kattaligi hisoblanadi.  $((AB^H=\alpha), (AB^V=\beta) \text{ va } (AB^W=\gamma))$

Chizmaning fazoviy holatida proyeksiyalar tekisliklari shartli ravishda chegaralanadi.

Ish so'ngida chizma taxt qilinadi, ya'ni chizma qog'oz hoshiyasi, usosiy yozuv o'mni chizildi va u belgilangan taribda to'ldiriladi (2.2.55-chizma).

#### Takrorlash uchun savollar.

- O'cham qo'yish qoidalari qanday?
- O'cham qo'yish turlar nechta?
- Chizmalardagi gabarit o'cham deb nimaga aytildi?
- O'cham qo'yishda nimalarga etibor berish kerak?
- Odatda siz qanday o'cham qo'yish turlaridan foydalanasisiz?
- Nuqtanining markaziy proyeksiyasi qanday yasaladi?
- Qanday holda to'g'ri chiziqning markaziy proyeksiyasi nuqta bo'ladi?
- Markaziy proyeksiyalashda nimalar berilgan bo'ladi?
- Parallel proyeksiyalash usuli qanday bajariladi?

10. Qanday holda to'g'ri chiziqning parallel projeksiyasi nuqtaladi?

Test

1. Standartga muvofiq yo'g'on tutash chiziqning o'chami qaysi javobda berilgan?

- A. 0,6-1,5 mm
- B. 0,2-0,6 mm
- C. 1,7 mm
- D. 0,3 mm

2. R qanday shartli belgi?

- A. Radius
- B. Konuslik
- C. Burchak
- D. Qiyalik

3. Buyum chizmasida ko'rinnas konturlar qanday chiziq bilan tasvirlanadi?

- A. Shtrix chiziqda
- B. Uzuq chiziqda
- C. Yo'g'on tutash chiziqda
- D. Ingichka tutash chiziqda

4. Bir nechta parallel yoki kontsentrik aylanalar markazidan o'tuvchi o'cham chiziqlari bir-biriga yaqin masofada o'tkazilganda, ular ustiga qo'yiladigan o'cham sonları qanday tartibda joylashtiriladi?

- A. Shaxmat tartibida
- B. Ustma-ust tartibda
- C. O'cham sonları ko'rsatilmaydi
- D. Ikkitadan biri ko'rsatiladi

5. Detal qirrasi Hga perpendikulyar bolsa, shu qirraning horizontal proyeksiyasi qanday ko'rinishda bo'idai?

- A. Nuqta
- B. Haqiqiy kattalikkda
- C. Qisqarib
- D. Istalgancha

10. Qanday holda to'g'ri chiziqning parallel projeksiyasi nuqtaladi?

Emiga

1. Nuqtaning parallel projeksiyasi qanday ko'rinishda bo'ladi?

4. To'g'ri burchakli projeksiyalashni..... proyeksiyalash deb ham yoztiladi. Nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zni toping.

6. Oldindan berilgan biror shartni qanoatlantriruvchi geometrik shakkarni honil qilish.....masalalar deyiladi. Nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zni toping.


Hov'liqa

1. Detalning eng katta o'chamlarini, ya'nı kengligi, balandligi va eni yoki qolnigini ko'rsatuvchi o'chamlar..... deyiladi. Nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zni toping.

3. Berilgan ikki geometrik shakkarning o'zaro joylashish vaziyatiga nisbatan ularning kesishuvu natijasida hosil bo'lgan uchinchli geometrik shakkning vaziyati aniqlanadi yoki vaziyati aniqlanadigan geometrik shakkarga tegishli masalalar ..... masalalar deyiladi. Nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zni toping.

5. Berilgan geometrik shakkarning o'zaro vaziyatidan hosil bo'lgan shakkning metrikasi aniqlanadi yoki oldindan berilgan biror shakk metrikasiga asosan shakkarning o'zaro vaziyatlarini aniqlanadi yoki o'chamlari aniqlanadigan geometrik masalalar ..... masalalar deyiladi. Nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zni toping.

## KRASSVORD



### III BOB. GEOMETRIK YASASHLAR


#### 1.Ş. Kesmalarini, burchaklarni va aylanalarini teng bo'laklarga bo'lish (muntazam ko'pburchak yasash).

Geometrik yasashlar – masalani yechishning bir usuli bo'lib, bunga javob grafik usulda olinadi. Yasashlar chizma asboblari yordamida bajariladi. Bunda ishni juda aniq bajarin shart, chunki, masalaning to'g'ri yechilishi shunga bog'iqliq. Masalaning shartlari va yordamchi yasashlar T, 2T qalamlar bilan ingichka tutash chiziqlar bilan bajariladi. Masalani yechishning ratsional usullaridan biri uchburchakli chizg'ichlar bilan ishlashdir.

#### To'g'ri chiziqni, burchakni va aylanalarini teng bo'laklarga bo'lish

##### To'g'ri chiziq kesmasini teng bo'laklarga bo'lish

To'g'ri chiziq kesmasi AB ni  $n$  teng bo'laklarga bo'lish uchun A nuqta orqali AB to'g'ri chiziqa ixtiyoriy burchakka AC yordamchi to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Bu to'g'ri chiziqni A uchidan  $n$  o'zaro teng kesmani qo'yamiz. Oxirgi D nuqtani B nuqta bilan birlashtiramiz. Bo'lingan nuqtalar orqali BD ga parallel chiziqlar o'tkazamiz. Natijada AB to'g'ri chiziq kesmasi teng bo'laklarga bo'linadi (3.1.1.-chizma).




3.1.1-chizma

##### Parallel va perpendikulyar chiziqlar yasash.

Gorizontal parallel chiziqlarni chizishda eng quiyay usuli reysshinalar bilan chizishdir, qolaversa uchburchakliklardan foydalangan maqsadga muvofiqidir.


Vertikal va og'ma parallel chiziqlarni hamda perpendikulyarlarni reysshinalar va uchburchakli chiziq'ichilar bilan bajariladi (3.1.2-chizma).



3.1.2-chizma


##### To'g'ri chiziqni teng ikkiga va bir necha bo'laklarga bo'lish.

AB to'g'ri chiziq kesmasi berilgan bo'lsa, uni teng bo'lakka bo'lish uchun sirkul ignasini A nuqtaga qo'yib, taxminan yarmidan ko'proq masofada yoy chiziladi, keyin B nuqtaga sirkul ignasini qo'yib shu radius bo'yicha ikkinchi yoy chiziladi, ikkala yoy kesishgan C va D nuqtalarni tutashiruvchi chiziq AB to'g'ri chiziq kesmasini teng ikkiga bo'ladi va shu bilan birga o'zaro perpendikulyar(AB $\perp$ CD) chiziqlar ham hosil bo'ladi (3.1.3-chizma). Berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasini masalan, teng yetti bo'lakka bo'lish uchun, B nuqtadan shu chiziqa o'tkir burchak bosil qiluvchi ixtiyoriy BC chiziq chiziladi va ixtiyoriy bir birlikda yetti bo'lakga bo'linadi. Yettingchi nuqta A nuqta bilan tutashitiriladi. A7 to'g'ri chiziqa parallel holda, qolgan nuqtlardan chiziqlar o'tkaziladi va bu chiziqlar AB kesmani teng yetti bo'lakka bo'ladi (3.1.4-chizma). Gorizontal chiziqqa nisbatan turli burchaklar hosil qilish 3.1.5-chizmada lo'rinilgan.




3.1.3-chizma






3.1.4-chizma



3.1.5-chizma


Sirkul yordamida ham o'zaro parallel chiziqlarni chizish mumkin  
(3.1.6-chizma).



3.1.6-chizma

Buning uchun berilgan to'g'ri chiziqda A va B nuqtalar tanlab olinadi va ulardan bir xil kattalikdagi radioslarda yoylar chiziladi. Shu chizilgan yoylarga urinma qilib to'g'ri chizq chiziladi.


Berilgan to'g'ri chiziqqa A nuqtadan unga parallel to'g'ri chiziq o'tkazish uchun A dan chiziqi kesadigan radiusda yoy chiziladi va B nuqtadan A nuqta orqali o'tiladigan yoy chiziladi hamda unga  $AC=BD$  ko'rinishda o'chab qo'yiladi. So'ngra A va D nuqtalar tutashtiriladi (3.1.7-chizma).




3.1.7-chizma


O'zaro perpendikulyar to'g'ri chiziqlar chizish. Ularni reysshina va uzburchaklik, ikkita uchburghaklik va to'g'ri chizg'ich hamda uchburghaklik yordamida chizish mumkin (3.1.10-chizma).

**Burchaklarni teng bo'laklarga bo'lish.** 3.1.7-3.1.8-chizmalarda burchaklarni teng bo'laklarga bo'lish chizg'ichhamda sirkulda bajarisht ko'natilgan. 3.1.9-chizmada esa go'niyalar yordamida burchaklarni teng bo'laklarga bo'lish ko'satilgan.



3.1.8-chizma






3.1.10-chizma



3.1.11-chizma

Lekin chiqarilgan kesimda tekislik o'mi, ya'ni shtrix punktir chiziq bilan almashitiriladi va kesim shu chiziqning davomida bajariladi (5.3.2-chizma, a).



5.3.2-chizma


Agar kesimda nosimmetrik shakl hosil bo'lsa, chiqarilgan kesimda kesuvchi tekislik izi uzuq chiziq bilan detalning qaysi joyidan o'tganligini ko'rsatadi va kesim ham bir xil yozuv bilan ta'minlandi (5.3.3-chizma,a).



5.3.3-chizma


Ustiga chizilgan va tasvirlararo kesimda tekislik izi uzuq chiziq chilib, u begilanmaydi (5.3.3-chizma, b, c). Kesuvchi tekislik aylanish sirti markaziy o'qi orqali kesib o'tsa kesimda aylanish sirti konturi to'liq ko'rsatiladi. (5.3.4-chizma,a,b).

Kesuvchi tekislik sifatida silindrik sirt olinishi ham mumkin (5.3.8-chizma), bunday holda kesim yoyib tasvirlanadi va yoyilganlik belgisi qo'yiladi.




5.3.4-chizma

Bitta detalga tegishli bo'lgan bir nechta bir xil kesimlar uchun kesuvchi tekisliklar izi uzuq chiziq bir xil harf bilan belgilanadi va bitta chiziladi (5.3.5-chizma).




5.3.5-chizma

Kesuvchi tekisliklarni tanlashda, ularni o'tkazishda normal ko'ndalang kesim hosil qilishiga e'tibor beriladi (5.3.6-chizma).




5.3.6-chizma

Qiya joylashgan detalga tegishli bo'lgan bir nechta bir xil kesimlarni ifoda qiluvchi tasvir 5.3.7-chizmadagi kabi tasvirlanadi.



5.3.7-chizma

**Qirqimlar** (O'zDSt 2.305:2003). Detalning ko'zga ko'rinnmaydigan ichki tuzilishini aniqlash maqsadida qirqimlar qo'llaniladi. Qirqimlar hosil qilish uchun chizmada detailning ichki tuzilishi bitta yoki bir nechta tekislik bilan fikran kesib ko'satiladi. Qirqim shartli tasvir hisoblanib, unda detailning tekislik bilan kesilgan joyi va kesuvchi tekislik orqasida joylashgan ko'rindigani qismlari ham qo'shib ko'satiladi (5.3.9-chizma, a, b, c).



5.3.9-chizma


Bu yerda detal P tekislik bilan qirqilib, ikkiga: A va B bo'laklarga ajratilgan. Fikran B bo'lak olib qo'yilgandan keyin A bo'lakning qirqilgan joyi shtrixlanadi. Detailning bosh ko'rinishida ham o'sha joy shtrixlangan.

Qirqimlar kesuvchi tekislik detailni teng ikki qismga ajratsa, kesuvchi tekislik izi chizmada ko'rsatilmaydi (5.3.9-chizma, c). Detailning qismidagi tenhikni qireqib ko'rsatish joiz bo'lsa, kesuvchi tekislik izi uzuq chiziqlar bilan ko'rsatiladi va qirqim A-A kabi belgilanadi (5.3.10-chizma).

Qirqim o'zi nima?


Qirqim qanday hosil bo'ladi va u qanaqa talablarga javob berishi konak?

Qirqim bir yoki bir necha tekislik bilan hayolan qirqligan buyumning turlaridir.



5.3.11-chizma

Kesuvchi tekislik izi uzuq chiziqlarni tasvirlash 5.3.11-chizmada berilgan, A harflari yo'nalishlarining detal konturiga nisbatan tashqi tomonaligiga yoziladi. Yo'nalishning shakl va o'lchamlari 5.3.12-chizmada ko'rsatilgan.



5.3.12-chizma

Kesuvchi tekislikarning proyeksiyalarini tekisliklara nisbatan egallagan vaziyatiga qarab qirqimlar uch xil: frontal, gorizonttal va profil bo'ladi. Bulardan tashqari, qo'shinchalik tekisliklarda qiya qirqimlar ham bajariladi. Ayrim hollarda mahalliy qirqimlar qo'laniladi. Detalning ichki tuzilishini bitta tekislik orqali ko'rsatish mumkin bo'lsa, bunday qirqim **oddiy qirqim** hisoblanadi.


O'quvchilarning oddiy qirqimlarni bajarish bo'yicha savodxonligi takomilashtirishda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor berish kerak.

1. Qirqim haqida tushuncha;
2. Oddiy qirqim turлari;
3. Oddiy qirqimming detalni to'laroq tasavvur qilishdagi ahamiyati; Chizmadagi tasvirlar detalning tashqi ko'rinishi haqidagina emas, balki uning ichki tuzilishi haqida ham aniq yoki yaqol tasavvur berishi lozim. Buzga ma'lumki, detalning ichki tuzilish shakkllari ko'rinishda shtrix chiziqlar bilan tasvirlash belgilangan. Chizmalarda aniqroq va tushunarliq tasvirlarni yaratish uchun qirqim deb ataluvchi shartli tasvirlash usulidan foydalaniadi. Biz oddiy qirqimlar bilan ishlashimizda qirqimming o'zini biliшhimiz zarur bo'ladi.

Qirqim quyidagi tartib bilan hosil qilinadi.

Proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'yigan kesuvchi tekislik detalning go'yo uning simmetriya tekisligi bo'ylab ikki bo'lakka bo'ladi. Qirqim bajarilayotganda uning turlariga ham alohida etibor qaratish lozim. Detalning ko'rinishda qirqim hosil qilish uchun agar kesuvchi tekislik bitta bo'tsa, hosil bo'lgan qirqim oddiy qirqim deb ataladi. Kesuvchi tekislikning proyeksiyalar tekisligiga nisbatan shakliga qarab, qirqinlar quydagi turlarga bo'linadi.

1. Frontal qirqimlar: bunda kesuvchi tekislik frontal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'ladi (5.3.13-chizma).




5.3.13-chizma

Gorizonttal qirqimlar: bundagi kesuvchi tekislik gorizonttal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'ladi (5.3.14-chizma).



5.3.14-chizma


Profil qirqimlar: bunda kesuvchi tekislik profil proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lganda profil qirqim hosil bo'ladi (5.3.15-chizma).



## PROFIL QIRQIM

5.3.15-chizma

Qiya qirqim: agar kesuvchi tekislik proyeksiyalar tekisligi bilan o'tkiz burchak hosil qilganda, qiya qirqim hosil bo'ladi (5.3.16-chizma).




5.3.16-chizma

Oddiy qirqimlar kesimlardan ancha farq qiladi. Shuning uchun ham oddiy qirqimlarning farqini bilsizimiz, mulohaza yuritishni o'rgatishimiz zarur.



Chizmalarda qirqimlarning belgilanishi frontal, profil, va gorizontal qirqimlar tegishli ko'rinishlar o'mida joylashishi mumkin, jumladan frontal qirkim oldidan ko'rinish o'mida, profil qirkim yonidan ko'rinish, gorizontal qirkim ustidan ko'rinish o'mida joylashadi.

Symmetriya o'qiga ega bo'lgan detailarning chizmalarda qirkim qo'lanilmoxchi bo'lsa, standartga muvofiq, ko'rinishning yarmi bilan qirkimning yarmini qo'shib tasvirlash mungkin (5.3.17-chizma), ularni qirkimning shtrix-punktir chiziq ajratib turadi. Shuningdek, detailning ko'rinishi bilan qirkimmi, butun detalni emas, balki uning bir qismmini, agar bu qism aylanish sirti bo'lsa, simmetriya o'qi orqali ajratib tasvirlashga standartda ruxsat etiladi (5.3.18-chizma).



5.3.17-chizma


Asosiy ko'rinishda detal ko'rinishning yarimi bilan qirkimning yarimini qo'shib tasvirlangan bo'lsa, chapda ko'rinishda ikkita A-A va B-B qirkimlarning yarimini qo'shib tasvirlash ham mumkin (5.3.19-chizma). Bunday hollarda ham ikkala qirkimni shtrix punkti ajratadi.




5.3.18-chizma

Detailning ba'zi elementlari ko'rinishning yarimini qirkimning yarimi bilan tasvirlashga imkon bermaydi va ular to'lqinsimon ingichka chiziq bilan ajratib ko'satiladi (5.3.20-chizma).


Qirrali simmetrik o'qqa ega bo'lgan detal chizmasida unga qirkim bujurishida, qurasi simmetriya o'qi bilan qo'shilib qoladigan bo'lsa, ko'rinishning qismi tegishli qirkimda to'lqinsimon ingichka chiziq bilan ajratiladi (5.3.21-chizma a, b).




5.3.19-chizma




5.3.20-chizma




5.3.20-chizma



5.3.21-chizma



5.3.22-chizma




5.3.23 –chizma

Detalning biror qismidagi o'yiq, teshik kabi joylarni aniqlash maqsadida mahalliy qirqim tabiqi etiladi (5.3.23-chizma).


Bu yerda val uchidagi segmeni shponka pazi mahalliy qirqim orqali ko'rsatilgan. Mahalliy qirqim to'lqinsimon ingichka chizig'i bilan chegaralanib, tasvirning biror chizig'i bilan qo'shilib qolmasligi zarur (5.3.22, 5.3.23-chizmalar).

**Murakkab qirqimlar.** Detalning chizmasida uning ichki ko'rinishlarini aniqlashda ikki va undan ortiq kesuvchi tekisliklar tabiq qilinsa, murakkab qirqim hosil bo'ladi (5.3.24-chizma).


Bunday hollarda ko'rinish qismi yoki qirqim qismi ko'pligining farqi bo'lmaydi. Bunday qirqimlar ko'rinishning qismi bilan qirqimming qismi qo'shib tasvirlangan qismi 5.3.22-chizmadagi kabi tasvirilashga to'g'ri keladi.




5.3.24-chizma



5.3.25-chizma



5.3.26-chizma



5.3.27-chizma

Kesuvchi tekisliklardan biri  $V$  ga parallel, ikkinchisi  $V$  ga qiya joylashgan bo'lib, ular orqali murakkab qirqim hosil qilinsa, u siniq qirqim detyiladi (5.3.26-chizma).

Bunday hollarda  $V$  ga qiya vaziyatdagi tekislik va undagi kesim  $V$  ga parallel bo'lguncha aylantiriladi. Shunda ikkala tekislik bitta tekislik bo'lib qoladi, kesim o'zining haqiqiy kataligida tasvirlanadi. Qiya kesuvchi tekislikni aylantirish jarayonida tekislik orqasida joylashgan detal qismi (elementlari) o'z o'rinnarini o'zgartirmaydi (5.3.27-chizma).


Bu yerda silindr ustidagi to'rburchak prizma tasvirida hech qanday o'zgarish ro'y bermagan. Chunki tekislikdagi kesim  $V$  bilan fikran jipslashtiriladi.

#### Nazorat savollari

1. Ortogonal proyeksiya deb nimaga aytildi?
2. Ko'rinishning proyeksiyadan farqini aytilib bering?
3. Nima asosida chizmada ko'rinishlarning sonlari kamaytiriladi?
4. Qo'shimcha ko'rinish deb nimaga aytildi? Mahalliy ko'rinishchi?
5. Kesimning qirqimidan farqi nimada?
6. Nima asosida chizmada ko'rinishlarning sonlari kamaytiriladi?
7. Qirqimlarning qanday turlari mavjud?
8. Ustiga qo'yilgan kesim konturi qanday chiziqdada tasvirlanadi?

#### Mashqlar.

1. Model (detal)ning aslidan uchta proyeksiyasini chizing?
2. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan detalning ikkita ko'rinishiga binoan uchinchini ko'rinishini aniqlang.
3. Quyidagi rasmida berilgan to'rtta detalning ko'rinishlaridan foydalananib ularni bitta ko'rinishda tasvirlang.



- Test**
1. Detalning asosiy ko'rinishi qaysi proyeksiyalar tekisligida tasvirlanadi?
    - A. Frontal
    - B. Gorizontal
    - C. Profil
    - D. Aksonometrik
  2. "Ko'rinish" nima?
    - A. Narsaning kuzatuvchiga ko'rinishib turgan tomonining tasviri
    - B. Buyumlarning ko'rinarli konturi
    - C. Proyeksiya tekisliklariغا qarab turgan tomonining tasviri
    - D. Detal chizmasi
  3. Murakkab qirqimda nechta kesuvchi tekislikdan foydalanish noto'g'ri bo'ladi?
    - A. Bitta
    - B. Ikkita
    - C. Uchta
    - D. To'rtta
  4. Qirqim nimasi?
    - A. Detalning kesuvchi tekislikda hosil bo'ladiigan kesini va uning orqasida joylashgan detailni ko'rinarli qismi birlashgan tasvir
    - B. Detalning fikran tekislik bilan qirqilgan (kesilgan) joy
    - C. Faqt kesuvchi tekislikdagi detail tasviri
    - D. Kesuvchi tekislikkacha bo'lgan detalning tasviri


## KRASSVORD

### Eniga

- Detalning faqat kesuvchi tekislik bilan kesilgan joy tasviri .....deyiladi
- Tasvirlashda nechta asosiy ko'rinish mayjud?
- Detal ikkita tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo'ladi?
- Detalning qaysi ko'rinishi asosiy (bosh) ko'rinish deyiladi?
- Detal bitta kesuvchi tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo'ladi?

### Bo'yiga

- Buyumming biror kichik qismini aniqlash maqsadida berilgan qirqim qanday qirqim deyiladi?
- Detalning asosiy ko'rinishi qaysi proyeksiyalar tekisligida tasvirlanadi?
- Kesuvchi tekisliklar o'zaro kesishuvchi bo'lsa, qanday qirqim deyiladi?




### 1-§. Umumiy tushunchalar.

Mashina detallarini yassashda shu detailarning ish chizmalaridan toydalanijadi. Lekin ish chizmasining asosiy kamchiliqi shundaki, unda detalning ko'rinishlari alohida-alohida tasvirlanadi. Bu esa chizmaning o'qilishini biroz bo'lsa ham qiyinlashtiradi. Shuning uchun, amalda, detalning ish chizmasi bilan birga uning yaqqol tasviri ham beriladi. Yaqqol tasviri, ya'ni aksonometrik proyeksiyasi yordamida ish chizmalarini tez va osongina o'qiladi.

Ayniqsa, yangi ixtiro qilinayotgan mashina konstruksiyasi chizmalarini chizishda aksonometriya muhim ahamiyatga ega.

Aksonometriya *yunoncha-akson-o'q va metro-o'chash* degani, ya'ni o'q bo'yicha o'chash degan ma'noni anglatadi.

Fazodagi O nuqtada kesishuvchi o'zaro perpendikulyar uchta chiziq aksonometrik o'qlari deb qabul qilinib, bu koordinatalar tizimini aksonometrik P tekislikka s yo'nalish bo'yicha proyeksiyalash orqali aksonometriyada koordinata o'qlarining proyeksiyalarini hosil qilinadi (5.1.-chizma).



Har bir o'q uchun umumiy bo'lgan e


kesma masshtab birligi sifatida qabul qilinib, natural masshtab birligi deb ataladi. Bu kesmaning P tekisligidagi proyeksiyalarini aksonometrik masshtab birliklari deyiladi.

#### 5.1.1-chizma

Ularning natural masshtab birligiga nispatlari aksonometrik o'qlari bo'yicha o'zgarish koefitsiyentlari uchala o'q bo'yicha bir xil bo'lsa ( $e_x = e_y = e_z$ ), izometrik proyeksiya yoki qisqacha izometriya deyiladi. Agar o'zgarish koefitsiyentlari ikkita o'q bo'yicha bir xil bo'lib, uchinchi ulardan biri farq qilsa, ya'ni  $e_x = e_z \neq e_y$ , yoki  $e_x = e_y \neq e_z$  bo'lsa, dimetrik proyeksiya yoki qisqacha dimetriya deyiladi. Uchala o'q bo'yicha o'zgarish koefitsiyentlari turilcha, ya'ni  $e_x \neq e_y \neq e_z$  bo'lsa, trimetrik proyeksiya yoki qisqacha trimetriya deyiladi.  $e$  yo'nalish P ga perpendikulyar bo'lsa, to'g'ri burchakli, og'ma bo'lsa, qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiya deyiladi. Quyida to'g'ri burchakli izometrik proyeksiya va qiyshiq burchakli dimetriya o'rganiladi.

## 2.8. Izometrik proyeksiya


**1. To'g'ri burchakli izometrik proyeksiya.** Bunday izometrik proyeksiya uchun  $e_x=e_y=e_z=2$  kelib chiqadi va bundan  $e=2/3=0,8165-0,82$ ni hosil qilish mumkin. Demak,  $e_x=e_y=e_z=0,82$  bo'lsa, har bir aksonometrik o'q uchun o'zgarish koefitsiyenti 0,82 ga teng ekan. Izometriyada uchala o'q bo'yicha o'zgarish koefitsiyenti bir xil bo'lgani uchun koordinata o'qlari orasidagi burchaklar ham o'zaro teng bo'ladi (5.2.1-chizma), ya'nii  $120^\circ$  dan bo'ladi.



Yaqqol tasvirlar asosan detalning ortogonal proyeksiyalariaga asosan bajarildi. Standart izometriyada qulay bo'lishi uchun barcha o'qlar bo'yicha o'zgarishsiz, ya'nii 0,82 o'miga  $x=y=z$  qilib olinadi. Shunda detal o'ziga nisbatan 1,22 marta kattalashirib tasvirlanadi.


**5.2.1-chizma**  
Tekis shakkllarning izometriyasini yasash. Ko'pyoqliklarning yoqlari, asoslari tekis shakkllardan iborat bo'ladi. Tekis shakkllar ko'pburchaklik, aylanalar izometriyada H, V va W tekisliklarda bir xil ko'rinish va kattalikda chizildi, faqat ularning farqi turlicha joylashganligida bo'ladi.

Tekis shakkllardan biri kvadratning izometriyasini H da chizish uchun x va y o'qlari chizib olinadi va o'qarining kesishish nuqtasi O dan x va y larga kvadratning proyeksiyasidan mos holda o'chab qo'yiladi. So'ngra x va y larga parallelar chizib, kvadratning izometriyasini tayyor qilinadi. Xuddi shu tartibda V va W larda bajariladi: V da chizish uchun x va z o'qlari chizib olinadi (5.2.2-chizma,c) va proyeksiyasidagi (5.2.2-chizma,a) 1 va 3 nuqtalar x ga, 2 va 4 nuqtalar z ga o'chab qo'yiladi. 1 va 3 nuqtalardan z ga, 2 va 4 nuqtalar x ga parallelar chizilib ular o'zaro kesishitiriladi. W da chizish 5.2.2-chizma, d da ko'rsatilgan.




5.2.2-chizma

Muntazam oliburchakning izometriyasini H da yasash uchun x va y o'qlar chizilib, unga O nuqtadan proyeksiyasidagi  $1_1, 4_1$  x ga,  $A_1, B_1$  nuqtalar y o'qqa o'zgarishsiz o'chab qo'yiladi (5.2.3-chizma, a, b). A va B lardan x o'qqa parallel chizib, unga chizmadagi A<sub>2</sub>,  $1_1$  (B<sub>1</sub>, 6) va A<sub>3</sub>,  $1_1$  (B<sub>5</sub>) bo'laklar olib o'tiladi. 1 nuqta 2 va 6 bilan, 4 nuqta 3 va 5 bilan tutashiriladi. Shu tartibda muntazam oliburchak V va W tekisliklarda chizilishi 5.2.3-chizma,b,d larda ko'rsatilgan.



5.2.3-chizma

Aylananizometriyasining H, V, W tekisliklarda tasvirlanishi 5.2.4-chizma, a da berilgan bo'llib, ular o'zaro teng ellips chizish ancha vaqt talab qiladi. Shuning uchun standart riuxsatiga binoan uni to'rt markazli ovalga almashtirib chizildi. Bu yerda ovalning katta o'qi AB=1,22d ga teng tasvirlanadi. Ovalarning katta AB o'qlari H da z ga, V da y ga, W da x ga perpendikulyar joylashadi. Kichik o'qi CD o'qlari H da z bilan, V da y bilan, W da x bilan qo'shilib qoladi.




5.2.4-chizma

Aylananizometriyasini H da yasash uchun x va y chizilgandan keyin, kichik CD o'q z yo'naliishi bo'llinadi va unga perpendikulyar qilib katta o'q AB o'tkaziladi. Berilgan kattalikdagidagi d diametrali aylana O nuqtadan chizildi. Aylananizometriyadagi z o'qlari bilan kesishgan joylari O<sub>1</sub> va O<sub>2</sub>,

### 3.8. Dimetrik proyeksiya.

$x$  va  $y$  o'qlari bilan kesishayotgan joylari 1,2,3,4 deb belgilanganadi.  $O_1$  bilan 1 va 2 ( $O_2$  bilan 3 va 4) nuqtalar tutashtirilib, katta o'qda  $O_3$  va  $O_4$  markazlar hosil qilinadi.  $O_1$  va  $O_2$  markazlardan 12 va 34 yoylar chiziladi,  $O_3$  va  $O_4$  markazlardan 23 va 14 yoylar chiziladi (5.2.4-chizma,b). Shu taribda V va W larda chizish mumkin.

Detalning izometriyassini chizish. Odatda detalning izometriyasi uning berilgan ko'rinishiga muvofiq uning izometriyasi quyidagi taribda: ikkita ko'rinishiga bo'lib, ikki yozgatish (ikki yoqlama), ya'ni ikki o'q berilgan ko'rinishlari asosida chiziladi. Shu boisdan detalning berilgan yerdagi T bilan belgilangan yuza (5.2.5-chizma, a) tanlanadi va uning bior tekisligi (chizishni boshlash uchun) baza sifatida tanlab olinadi. Bu yerda T bilan belgilangan yuza (5.2.5-chizma, a) tanlanadi va uning izometriyasi chiziladi. Bir yo'la detal asosining qalniligi qo'shib chiziladi (5.2.5-chizma, b).



5.2.5-chizma


Yarim aylananing izometriyasi  $O^1$  markazda chiziladi va A,B nuqtalardan  $y$  o'qqa parallel chiziladi. Shunda yarim aylanalik o'yiq yasaladi. Detalning yarim aylanalik quloiq qismi chiziladi.  $O^{11}$  markazda yarim aylana chizilib C va D nuqtalardan  $z$  o'qiga parallel chiziladi. Yana nuqtalardan  $y$  o'qqa parallel chiziladi.

Detalning izometriyassini chizib bo'lгандан keyin qulog'idagi teshikiň to'liq ko'rsatish maqsadda uning chorak qismi qirib olinadi va kesim yuzasi shtrixlab qo'yiladi. Shtrixlash sxemasi 5.2.5-chizma, c da ko'rsatilgan. Bu yerda H dagi kesim 12 ga W dagi kesim yuzasi 23 ga parallel qilib shtrixlanadi.

**To'g'ri burchakli dimetrik proyeksiya.** O'zgarish koeffitsientlaridan ikkitasi o'zaro teng, uchinchisi esa boshqacha bo'lgan aksometriyani dimetriya degan edik. Shuning uchun dimetrik proyeksiyalar tekisligi hamma vaqt ikki koordinata o'qiga nisbatan bir xil qiyalikda joylashadi. Dimetriya so'zi grekcha bo'lib, **di**-qo'sh (ikki yoqlama), ya'ni ikki o'q bo'yicha bir xil o'chab qo'yish degan ma'nioni anglatadi.

To'g'ri burchakli dimetriyada o'zgarish koeffitsientlari  $Ox$  va  $Oz$  o'qlar bo'yicha bir xil, ya'ni  $e_x=e_z=0,94$ , Oy o'qi bo'yicha esa ikki marta qisqa, ya'ni  $e_y=0,47$  bo'лади. Amalda esa  $O'z$  DST 2.3.17.2003 ga binoan quyida keltirilgan o'zgartirish koeffitsientaridan foydalanildi:  $e_x=e_z=0,94-1,06=1$ ,  $e_y=0,47-1,06=0,5$ . Bunday koeffitsientlarda tasvir 1,06 marta katta bo'ladi. Oz o'q, odatda, vertical yo'malishda olinadi. Ox o'q horizontal (ufq) chizig'iga nisbatan  $70^{\circ}10'$  ni, Oy o'q esa  $41^{\circ}25'$  ni taskil qiladi.


5.3.1 va 5.3.2-chizmalarda taxminan  $7^{\circ}$  va  $41^{\circ}$  li burchak ostida koordinata o'qlarini yasash yo'llari ko'rsatiligan.




5.3.1-chizma

Bu burchaklarni yasash uchun 5.3.1-chizma, a da ko'rsatilgandek, Oz o'qida o'zaro teng ixtiyorli ikki kesma tanlab olinadi, O dan pastga (Oz o'qining davomida) shu kesmalarning biriga teng masofa o'chab qo'yiladi. Ox o'qining yo'nalishini aniqlash uchun, shaklda ko'rsatilgandek, 2 va 3 nuqtalardan o'tuvchi  $R$  va  $R_1$  radiusli yoylar chiziladi, ular o'zaro kesishib A nuqtani hosil qiladi (5.3.1-chizma, b). A nuqta bilan O nuqta tutashtirilsa, Ox o'qining yo'nalishi aniqlanadi.  $R_1$  va

$R_2$  radiusli yoylarning o'zaro kesishishidan hosil bo'lgan  $B$  nuqtani  $O$  bilan burtashtirish natijasida  $Oy$  o'qning yo'nalishi kelib chiqadi (5.3.1-chizma, c).



5.3.2-chizma



5.3.3-chizma


Dimetriyada koordinata o'qlarining yo'nalishini aniqlashning yana boshhqacha usuli 5.3.2-chizmada tasvirlangan. Gorizont chizig'i va  $Oz$  o'qning davomida  $O$  dan uch tomoniga bir xil kattallikdagi 8 ta kesmani o'lchab qo'yildi.  $Ox$  va  $Oy$  o'qlarni yasash yo'llari chizmaning o'zidan yaqqol ko'rrimoqda. Bu o'qlarning yo'nalishini transportir yordamida ham aniqlasa bo'ladi.

**Aylananing dimetrik proyeksiyasini yasash.** To'g'ri burchakli dimetriyada narsalarning yaqqol tasvirlarini yasash qulay bo'lishi uchun o'z DST 2.317:2003 ga binoan  $Ox$  va  $Oz$  o'qlari bo'yicha  $e_x = e_z = I$ ,  $Oy$  o'qqa esa ey=0,5 birlik olinadi. 5.3.3-chizmada o'zaro perpendicularar joylasigan  $H$ ,  $V$  va  $W$  tekisliklarda aylanining dimetrik proyeksiyalarini tasvirlangan.  $V$  tekisligidagi aylana tasviri-ellipsga nisbatan  $H$  va  $W$  tekisliklaridagi ellipslar  $Oy$  o'q bo'yicha ikki marta siqiq tasvirlangan.


Bu yerda ham, qulay bo'lishi uchun, izometrik proyeksiyadagi kabi elliplarni to'rt markazli ovallar bilan almashtirib chizish mumkin. Dimetrik proyeksiyada ham izometrik proyeksiyadagi kabi ellipsarning  $AB$  katta o'qlari koordinata o'qlari ( $Ox$ ,  $Oy$ ,  $Oz$ )ga perpendikulyar bo'ladi.

$H$  tekislikdagi ellipsni yasashda dimetrik proyeksiya o'qlari chiziladi, so'ngra berilgan  $D$  diametrda aylana chizilib, uning  $Oz$  o'qi bilan kesishgan  $M$ ,  $N$  nuqtalardan yuqoriga va pastga aylana radiusi bilan yoy chiziladi va  $O_1$ ,  $O_2$  markaz hosil qilinadi. Endi,  $Ox$  ga nisbatan  $7^\circ$  li burchakdagi chiziqlar chizilib,  $O_1$  va  $O_2$  markazlardan  $D$  diametri aylana bilan kesishgan 1 va 2, 3 va 4 nuqtalar sirkul yordamida tutashtiriladi.  $O_1$

markaz bilan 1 va 2 yoki  $O_2$  markaz bilan 3 va 4 birlashtirilsa, kichik radius markazlari  $O_3$  va  $O_4$  lar aniqlanadi.  $O_3$  va  $O_4$  markazlardan 1 va 3 hamda 2 va 4 nuqtalar birlashtirilsa, oval hosil bo'ladi (5.3.4-chizma).



5.3.4-chizma



5.3.5-chizma

$W$  tekislikdagi oval yasash ham  $H$  tekislikdagi oval yasash singari bir xildir (5.3.5-chizma). Bu yerda faqat  $CE$  kichik o'q  $Ox$  o'qida olinadi. Hosil bo'lgan ovalarning katta o'qlari  $1,06xD$  ga, kichik o'qlari  $0,35xD$  ga teng bo'ladi.

$V$  tekisligidagi ellipsarning  $AB$  katta o'qi ham  $1,06xD$  ga, lekin  $CE$  kichik o'qi  $0,94xD$  ga teng bo'ladi. Bunday ellips o'miga oval yasash uchun berilgan  $D$  diametri aylananini chizib  $Ox$  o'q bilan kesishgan  $M$ ,  $N$  nuqtalardan gorizont chizig'iga parallel chiziqlar o'tkazib,  $AB$  katta va  $CE$  ( $Oy$ ) kichik o'qlar bilan kesishdiriladi. Hosil bo'lgan  $O_1$ , markazzdan  $M$  bilan  $L$  nuqtani,  $O_1$  dan  $M$  bilan  $K$  nuqtani,  $O_3$  dan  $N$  nuqtani va  $O_4$ , dan  $L$  bilan  $N$  nuqtani sikul yordamida birlashtirib chiqiladi (5.3.6-chizma).

**5.3.7-chizma, a** da burchakli podshipnikning soddalashirib olingan to'g'ri burchakli proyeksiyalarini berilgan. Uning to'g'ri burchakli dimetriyasi 5.3.7-chizma, **c** da tasvirlangan bo'lib, kesim yuzasini shtrixlash yo'lli o'ng tomonida ko'rsatilgan.


Bu podshipnikni dimetriyada bajarish uchun avval dimetriya o'qlari chizib olinadi. Keyin *Ox* o'qiga to'g'ri burchakli proyeksiyadagi *O'C''* va *O''D''* masofalar dimetriyada *O* nuqtadan mos holda o'lchab qo'yiladi. So'ngra *C* va *D* nuqtalardan *Oy* hamda *Oz* larga parallel chiziqlar o'tkaziladi (5.3.7-chizma, b). *O'A''* balandlik *Oz* o'qqa o'lchab qo'yilib, *Ox* ga parallel chizilsa, dimetriyada podshipnikning old tekisligi hosil bo'ladi.

Podshipnikning gorizontal tekisliklarini yasash uchun uning to‘g‘ri burchakli proyeksiyasidagi  $OB'$  uzunlikning teng yarmisi  $O$  dan  $Oy$  o‘qqa o‘lchab qo‘yib,  $Ox$  ga parallel chiziladi. Yasalgan podshipnikning vertikal va gorizontal tekisliklarining burchaklaridan  $Oy$  va  $Oz$  larga mos holda parallel chiziqlar o‘tkaziladi.  $H$  tekislikka parallel bo‘lgan asosining qalinligi o‘zgartirilmasdan  $B$  dan pastiga,  $V$  tekislikka parallel bo‘lgan qismining qalinligining teng yarmini  $A$  dan  $Oy$  o‘qqa parallel o‘tkazilgan chiziqqa o‘lchab qo‘yib,  $Ox$  o‘qqa parallel chiziladi. Podshipnik tekisliklari burchaklaridan chizilgan qalinlik chiziqlarining kesishgan 1 va 2 nuqtalaridan  $Oy$  va  $Oz$  larga mos ravishda parallel chiziqlar chizilsa, ular o‘zaro kesishib, podshipnik qalinligining dimetriyadagi ko‘rinishi hosil bo‘ladi.


Qo'simchilikning orung'i tekisligida sinistik ochenq tesislikning on qismi qirqib ko'rsatiladi (5.3.-7-chizma, c).

***Qiyshiq burchakli (frontal) dimetriya.*** Qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyada narsalar aksonometrik proyeksiyalar tekisligiga bir tomoni bilan parallel bo'lib proyeksiyalanadi. Shunda narsaning bu tekisligiga parallel bo'igan o'chamlari haqiqiy kattaligida proyeksiyalanadi.  $Ox$  o'qi esa bu tekislikka ixtiyoriy burchakda proyeksiyalanishi mumkin. Lekin  $Oy$  o'qi  $Or$  va  $Oz$  o'qlari orasidagi burchakni teng ikkiga bo'lib o'tadigan qilib yo'naltiriladi. Bu o'q bo'yicha o'zgarish koefitsienti  $Or$  va  $Oz$  ga nisbatan ikki marta kichik olinadi. Aksonometriya tekisligiga nisbatan  $Oy$  o'qi qiyshiq burchakda joylashgani uchun ham uni qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiya deb ataladi,  $Oz$  tekisliklar tizimidagi  $V$  tekisligi frontal tekisligi deb yuritilgani uchun ham qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyani frontal dimetrik proyeksiya desa ham bo'ladi. 5.3.-8-chizmada qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyaning koordinata o'qlarining tasvirlanishi ko'rsatilgan.

Qiyshiq burchakli dimetrik proyeksiyani bundan keyin qisqa qib, frontal dimetriya deb yuritamiz. 5.3-9-chizmada H, V, W tekisliklar tizimida aylanalarin frontal dimetriyada tasvirlanishi ko'rsatilgan.




### 5.3.7-chizma




5.3.6-chizma

120

121



5.3.8-chizma



5.3.9-chizma

*V* tekisligiga parallel aylana, unda o'zining haqiqiy kattaligida, *H* va *W* tekisliklari  $45^\circ$  burchakda joylashgan bo'lib, ulardag'i aylanalar ellipslar shakliida tasvirlangan. *H*, *W* tekisliklarda ellipslar o'miga to'rt markazli ovallar chizamiz. Bu yerda ellipslarning katta o'qlari  $AB=I,06D$ , kichik o'qlari  $CE=0,35D$  bo'lsa, *V* tekisligida o'zgarmay, aylanaligicha, haqiqiy kattaligida tasvirlanadi.

Endi *H* dagi ovalni yasalishi bilan tanishamiz. 5.3.10-chizmada to'rt markazli ovalni chizish ko'rsatilgan bo'lib, ovalning kichik o'qi *Oz* dan  $7^\circ$  ga burligan. Katta o'qi unga perpendikular joylashgan. Dastlab, *D* diametri aylana chiziladi va *Oz* ga nisbatan  $7^\circ$  da ellipsisning kichik o'qi o'tkaziladi. Buning uchun *O* dan *z* o'qiga 8 bo'lak o'chab qo'yildi va 8-nuqtadan *z* ga perpendikulyar chiziqqa 1 bo'lak qo'yilib, u nuqta *O* bilan tutashiriladi (5.3.10-chizma). Aylanada hosil qilingan *M* va *N* nuqtalardan aylana radiusiga teng yoylar chizilib, *O<sub>1</sub>* va *O<sub>2</sub>* nuqtalar aniqlanadi. Aylananing *Ox* o'qi bilan kesishayotgan 3 va 4 nuqtalari orqali o'tadigan yoylarni *O<sub>1</sub>* va *O<sub>2</sub>* lardan chizib, aylanada 1 va 2 nuqtalarni aniqlaymiz. Bu yoylarning o'zaro kesishgan nuqtalari birlastirilsa, ellipsisning katta o'qi *AB* hosil bo'ladi (lekin bu jarayon chizmada ko'rsatilmagan). 1 va 2 nuqtalar *O<sub>1</sub>* va *O<sub>2</sub>* lar bilan tutashirilsa, *AB* da *O<sub>3</sub>* va *O<sub>4</sub>* tutashirish markazlari hosil bo'ladi. *O<sub>3</sub>* va *O<sub>4</sub>* lardan sirkulda 1 va 3, 2 va 4 nuqtalar tutashiriladi. *W* tekisligidagi ellips *H* tekisligidagiga o'xshagan holda bir xil chiziladi. Faqat uning joylashishida  $7^\circ$  ga surilish *Oz* ga nisbatan olinadi.

5.3.11-chizma, a da ventil (jo'mrak) qopqog'ining to'g'ri burchakli proyeksiyalari berilgan bo'lib, uning frontal dimetriyasini bajarish qulay bo'lishi uchun, balandligi (*Oz* o'qini) *Oy* o'qiga almashtirib bajarildi.


Kesim yuzasini shtrixlashda *OX* va *Oz* larga bir xil kattalikda, *Oy* uchun uning teng yarmisi olinadi, shunda hosil bo'lgan shtrixlash yo'nalishtiga parallel chiziladi (5.3.11-chizma, b). Bu yerda tasvir o'zining proyeksiyasiga nisbatan ikki marta kattalashdirib bajarildi. Lekin o'zining haqiqiy kattaligida chizilishi mumkin edi.

Silindr, konus va shu kabilarni, ya'ni aylanish sirtlarini frontal dimetriyada tasvirlash qulay bo'lishi uchun, to'g'ri burchakli proyeksiyalari bog'lab chizish shart emas.

#### 4.8. Eskiz va texnik rasm.

Konstrukturlik byurosi ishida yangi g'oyalarni mashina, mexanizm va boshqalarni loyiha joylashishda konstruktur o'z fikrini, avvalo eskizlarda ifodalandaydi. Bunday eskizlar loyiha eskizlari deyiladi.

Ishlab chiqarishda bir marta qo'llaniladigan chizmalarga eskizlar kirdi. Eskizlar asosan buyumming chizmasini chizish uchun asos hisoblanadi. Yasaladigan buyumming eskizi uning ish chizmasi bajarildi. Ivvquiloda hollarda detailni eskiziga qarab yasash mumkin bo'ladi.



5.3.11-chizma

Sababi, mashina detalni to'satdan yaroqsiz ya'ni sinib qolsa, uni tez yasashga to'g'ri kelgan hollarda eskiz mavjud detalga qarab chiziladi va u asli eskiz deyildi.


Eskiz chizishda detalning hamma qismlari orasidagi nisbatlarni chamlab aniqlash qiyin bo'lsa, uni qalamda o'chab chizish yaxshi natija beradi ismi tezlashtirish maqsadida aylana va uning yoylarini chizish hamda aylanalarning teng bo'laklarga bo'iishni sirkulda bajarishga standart ruxsat etadi, lekin keyinchalik aylana va ularning yoylari ustidan qo'lda yurgizib chiqiladi.

Detal haqidagi barcha ma'lumotlar eskizga yoziladi mukammal bo'lmagan, o'chamlari yetishmaydigan, chala bajarilgan eskiz orqali detal yasab bo'lmaydi va bunday eskiz ish chizmasini chizish uchun yaroqsizdir.

Eskizlar asosan millimetrlang'an yoki kataklangan qog'ozga chiziladi.

Ammo eskizni oq qog'ozga ham chizish mumkin.

Eskiz tuzish tarkibi: 5.4.1-chizmada eskizi chizilishi lozim bo'lgan detalning asli o'mida unning yaqol tasviri berilgan.



5.4.1-chizma


Eskiz chizish oldidan detalning o'ziga qarab, diqqat bilan sinchiklab, har tomonloma tekshirib chiqish va quyidagilarni aniqlash zarur:

- Detalning nomi va uning mexanizmdagi vazifasi, qanday materialdan yasalganligi aniqlanadi;
- Detalning geometriyasi, ya'ni uning elementlari qanday geometrik sirtlardan tuzilganliga aniqlanadi. Bu yerda detalning ichki va tashqi tuzilishi diqqat bilan o'rGANILADI. Undagi barcha teslik, chuquurcha, darcha va boshqa turli elementlari aniqlanadi;
- Detalning bosh ko'rinishi aniqlab olinadi va yana qancha ko'rinish zarurigi belgilanadi. Detalning bosh ko'rinishi sinchiklab o'rGANILADI va

qonday qirqim, kesim, mahalliy yoki qo'shimcha ko'rinishlar qo'llanishi uniqlanadi.


Eskiz chizishning o'ziga hos tarkibi mavjud (5.4.2-chizma, a-f):

- Eskiz chiziladigan format aniqlanadi va uning ramkasi, asosiy yozuvini hamda har bir ko'rinishning joylari ingichka chiziqda belgilab olinadi.
- Detalning ko'rindigan konturlari chiziladi.
- Detalning ichki bo'laklari shtrix chiziqlarda chiziladi.
- Detalga o'cham qo'yish chiziqlari chiziladi.
- Detal o'cham sonlari yoziladi.
- Detalga qirqim beriladi va tayyor qilinadi.
- Detalning ichki bo'laklari shtrix chiziqlarda chiziladi.



5.4.2-chizma

Lozim bo'lgan joylarda detalning texnikasi ham qo'shib chiqildi. Bu yerda detalning texnik rasi frontall dimetriyada bajariladi (5.4.3-chizma).



5.4.3-chizma

#### Texnik rasm.

Texnik rasm loyihalash amaliyotida keng qo'llaniladi. Konstruktur o'zining yangi fikrini yaqol qilib ifodalash uchun dastavval uning rasmini chizishi tizim va bunday rasmilar texnik rasm qonun-qoidalariiga amal qilgan holda bajariladi.


Texnik rasm deb, detalning nisbatini ko'z chamasida saqlagan holda chizmachilik asboblari ishlatalmay qo'lda bajarilgan aksonometrik tasvirma aytiladi.

Buyumning chizmalarini o'qish jarayonida ham texnik rasmlardan foydalaniлади. Buyum chizmasini tez va oson qiyalmay o'qish uning texnik rasmini chizish orqali amalga osdiriladi. U orqali buyumning shaklini ko'z oldiga keltirishga yordam beradi va fazoviy tasavvumi rivojlanitiradi.

Detalning texnik rasi ko'pincha izometriya yoki frontal dimetriyada bajariladi.

**1.8. Texnik rasm izometrik proyeksiya asosida bajarish.** Oldin texnik rasm chizish uchun qo'ida, ko'z bilan chamlab izometriya o'qlarini o'tkazish uchun yarim aylana chiziladi va uning yarimi teng uchga bo'lib


olnadi (5.4.4-chizma, a) va 1 hamda 2 nuqtalar O bilan tutashtiriladi. Yoki O dan ikki tomonga beshtadan bir xil bo'lak o'lchab qo'yiladi va oxirgi nuqtadan pastga uchtadan bo'lak qo'yilib, 1 va 2 nuqta O bilan birlashtiriladi (5.4.4-chizma, b).



5.4.4-chizma

Muntazam oltriburchakni proyeksiyasiz to'g'ridan-to'g'ri chizish uchun (5.4.6-chizma, a,b,c) x o'qqa O dan ikki tomonga OK=OL=AL=BL, ya'nii ikkitadan bo'lak qo'yiladi. AK to'riga bo'ljinib OT masofa y o'qqa ikki tomonlama olib o'tiladi. C va D lardan x ga parallel chizilib, ularga DI=D2 va C3=C4 masofalar olib o'tiladi. Aniqlangan nuqtalar o'zaro tutashtiriladi (5.4.5-chizma, a,b).


Muntazam oltriburchakni proyeksiyasiz to'g'ridan-to'g'ri chizish uchun (5.4.6-chizma, a,b,c) x o'qqa O dan ikki tomonga OK=OL=AL=BL, ya'nii ikkitadan bo'lak qo'yiladi. AK to'riga bo'ljinib OT masofa y o'qqa ikki tomonlama olib o'tiladi. C va D lardan o'qqa parallel chizilib, K va L nuqtalaridan y o'qqa parallel o'tkazilgan shtrix chiziqlarda 1, 2 va 3, 4 nuqtalar belgilanadi (5.4.6.212-chizma, b). A va 1, A va 3 nuqtalar hamda B va 2, B va 4 nuqtalar o'zaro tutashtiriladi (5.4.6-chizma, c).



5.4.6-chizma



Aylanani ellips ko'rinishida chizish uchun o'zaro perpendikulyar AB va CD chiziqlar chiziladi va ularga O dan o'ng va chap tomonlariga beshta bir xil bo'laklar, O dan pastga va yuqoriga uchtadan bo'laklar qo'yib chiziladi. 1 va 2 nuqtadan D bilan tutashtirilib davomiga 1C=OC, 2A<sub>1</sub>=2A

masofalar olib o'tildi va A, A<sub>1</sub>, C<sub>1</sub>, C nuqtalar ravon tutashtiladi. Shu tartibda ellipsning qolgan qismlari chiziladi (5.4.7-chizma, a). Ellipslarni V va W da chizish bayon etilgan usulda bajariladi (5.4.7-chizma, b,c).



5.4.7-chizma

Detalning texnik rasmi berilgan ko'rnishlari bo'yicha bajarish tartibi 5.4.8-chizma,a,b,c,d,e,f larda batasifil ko'rsatildi.



5.4.8-chizma

Texnik rasmlarni millimetrlangan yoki kataklangan qog'ozga chizish ham mumkin. Shunda texnik rasmi chizish ancha osonlashadi.


### 5.8. Sirtlarning o'zaro kesishuv chiziq'ning ortogonal va aksonometrik proeksiyasini bajarish

Mashina detallarining chizmalarida turli sirtlarning bir-biriga o'tish chiziqlari juda ko'p uchraydi. Ayrim paytlarda bu chiziqlar muakkab lekalo egri chiziqlari bo'lib, ularni qurish uchun juda ko'p nuqtalar topishga to'g'ri keladi.

Chizmalarida sirtlarning o'zaro kesishish chiziqlari asosiy tutash chiziqlari juda ko'p uchraydi. Quyilgan shtampovka qilingan detallarda sirtlarning o'zaro tutashgan (kesishgan) joylarida kesishish chiziqlari aniq bo'lmaydi. Tassavvur qilinayotgan kesishish chiziqlari o'tish chiziqlari deb atalib, ular chizmalarда ingichka tutash chiziqlar bilan tasvirlanadi. Bu chiziqlar o'zaro kesishayotgan sirtlar konturlarining kesishish nuqtalarida boshsilanadi va tugaydi (5.5.1-chizma, d)

Kesishish chiziq'

O'tish chiziq'i



5.5.1-chizma

Ayrim paytlarda sirtlarning o'zaro kesishish va o'tish chiziqlarini qurish katta anqlikni talab qiladi (masalan, quvurlarning, shamollatlash qurilmalarining, rezervuarlarning, mashina, stanok va bosqqa moslamalar kojuxlarining chizmalarida).

#### To'g'ri chiziqning jism sirtlari bilan o'zaro kesishishi.

Sirtlarning o'zaro kesishish chiziq'ini quiish bo'yicha masalalar yechish uchun to'g'ri chiziqing turli geometrik jism sirtlari bilan kesishish (uchrashish) nuqtalarini aniqlashni bilish zarur.

5.5.2-chizmada AB to'g'ri chiziq bilan uch yoqli piramidaning kesishish nuqtalarini aniqlash ko'rsatilgan. Buning uchun AB to'g'ri

chiziq orqali yordamchi proyeksiyalovchi  $P(P_H)$  tekislik o'kazamiz. Undan keyin yordamchi tekislik bilan piramidaning o'zaro kesishgan chizig'ini aniqlaymiz. Kesishgan chiziqning gorizontallari  $1''2''3''$  proyeksiyasi  $P$  tekislikning gorizontal izi  $P_H$  bilan ustma-ust tushadi. Frontal chiziqlar yordamida piramidaning frontal proyeksiyasining tegishli qirralarning frontal proyeksiyalarini  $M'', N''$  nuqtalar  $A''B''$  bilan kesisib qidirilayotgan nuqtalarining frontal proyeksiyalarini  $M', N'$  lar aniqlanadi.  $1''2''3''$  nuqtalar  $A''B''$  bilan kesisib qidirilayotgan orqali o'tkazilgan vertikal bog'lovchi chiziqlar yordamida kesishgan nuqtalarining gorizontal proyeksiyalarini  $M', N'$  lar aniqlanadi.


To'g'ri chiziq bilan sirtlarning kesishishining ayrim xususiy hollarida yordamchi kesuvchi tekisliklardan foydalananma ham bo'ladi. Masalan, AB to'g'ri chiziqning vertikal joylashgan to'g'ri doiraviy silindr bilan kesishgan nuqtalarini quyidagicha aniqlanadi (5.5.3-chizma).

Silindrning gorizontal proyeksiyasi aylana ko'rinishida bo'lganligi uchun, silindr sirtida yoqan barcha, shu qatori qidirilayotgan ikkita uchrashish nuqtalarini ham shu aylana ustida yotadi.


Uchrashish nuqtalarinin frontal proyeksiyalarini  $M'', N''$  lar  $M', N'$  orqali o'tkazilgan vertikal bog'lovchi chiziqlarning AB chiziqning frontal proyeksiyasi  $A''B''$  bilan uchrashgan joyida bo'ladi.

5.5.4-chizmada AB to'g'ri chiziq bilan to'g'ri doiraviy konusining uchrashish nuqtalarini aniqlash ko'rsatilgan. Buning uchun AB to'g'ri chiziq orqali konus uchidan o'tuvchi yordamchi kesuvchi tekislik o'tkazamiz (yordamchi tekislik proyeksiyalovchi bo'llishi kerak emas, aks holda konusni giperbolga yoki ellips bo'yicha kesib o'tadi).


Yordamchi tekislikni chizmada quyidagicha o'tkaziladi. AB to'g'ri chiziq ustida ixtiyoriy K nuqta tanlab olamiz va uni konus uchi S bilan tutashitramiz. Ikkito o'zaro kesishuvchi AB va SK to'g'ri chiziqlar P tekislik konusning uchi orqali o'tgani uchun, uni yasovchilar bo'yicha kesib o'tadi. Bu yasovchilarni aniqlash uchun P tekislikning gorizontal izi  $P_H$  ni topamiz.  $P_H$  AB va SK chiziqlarning gorizontal izlari  $A'$  va  $P$  nuqtalar orqali o'tadi ( $A'$ , nuqta H tekislikda joylashgan).  $P_H$  chiziq konus asosini  $3'$  va  $4'$  nuqtalarda kesib o'tadi. Bu nuqtalarni S nuqta bilan tutashitsak P tekislik bilan konusning kesishgan chiziqlari (yasovchilar)  $S3'$  va  $S4'$  lar hosil bo'ladi.  $S3'$ ,  $S4'$  yasovchilar  $A'B'$  chiziq bilan kesishib biz qidirgan nuqtalarining gorizontal proyeksiyalarini M' hamda N' nuqtalardan o'tgan vertikal bog'lovchi chiziqlar bilan A''B'' chiziqni kesishitirib topiladi.




5.5.2-chizma



5.5.3-chizma



5.5.4-chizma



5.5.5-chizma

#### Silindrlik sirtlarning o'zaro kesishishi


Mashinasozlik chizmalarini bajarishda o'qlari o'zaro  $90^\circ$  burchak ostida joylashgan silindrik sirtlarning o'zaro kesishish hollariga misollar ko'p uchraydi.

5.5.6-chizma, **a** da o'qlari proyeksiya tekisliklariga perpendikulyar bo'lgan ikkita doiraviy silindrلarning o'zaro kesishgan chizig'ini qurish ko'rsatilgan. Chizmani soddalashtirish maqsadida koordinata o'qlari **ox**, **oy** va **oz** lardan foydalanimagan.

Aval chizmada mavjud hamda xarakterli 1, 7 va 4 nuqtalarni aniqlaymiz.

Oraliq, masalan, 2, 3, 5 nuqtalarni topish uchun bu misolda yordamchi kesuvchi tekisliklar o'tkazish shart emas. Sababi, qidirilayotgan kesishgan chiziqning gorizontal proyeksiyasi kichkina silindrning gorizontal proyeksiyasi bo'lgan aylana bilan, profil proyeksiyasi esa katta silindrning profil proyeksiyasi bo'lgan aylana bilan ustma-ust tushadi. Demak, kesishgan chiziqning frontal proyeksiyasini, uning nuqtalarining mavjud ikkita proyeksiyasi bo'yicha yetishmovchi uchinchi proyeksiyassini topish usuli orqali qurib olish mumkin. Bog'lovchi chiziqlar chizmada ko'rsatilmagan.

Agar kesishuvchi silindrлarning diametrlari o'zaro teng bo'lsa (5.5.7-chizma), u holda kesishgan chiziqning frontal proyeksiyasi o'zaro kesishuvchi to'g'ri chiziqlar ko'rinishida bo'ladi. Bu chiziqlar tekis chiziqlar. yani yarim ellipsislarning frontal proyeksiyalardir.




5.5.6-chizma

#### Prizma va piramidi sirtlarning o'zaro kesishuvvi

Ikkita to'g'ri prizmalarning kesishuv chizig'ini aniqlashga ikkita silindrлarning kesishuv chizig'ini aniqlashga o'xshash bo'лади. Qirralari o'zaro perpendikulyar joylashgan prizmalarning kesishuv chizig'ini aniqlashni ko'rib chiqaylik (5.5.8-chizma).

Bu holda kesishgan chiziqlarning gorizontal va profil proyeksiyalarini mos holda prizmalarning gozontal hamda profil proyeksiyalarini bilan ustma-ust tushib qoladi. Kesishgan chiziqlarning frontal proyeksiyassini bitta prizmaning qirralari bilan ikkinchi prizma yoqlarining kesishgan nuqtalarini aniqlash orqali topiladi.

Masalan, besh yodqi prizmaning qirrasi to'rt yodqi prizma yoqini 1(1', 1'') nuqtada kesayabdi. 1'' nuqtani bizga ma'lum usulda bog'lovchi chiziqlar orqali aniqlab olamiz. Qolgan nuqtalar ham xuddi shu usulda topiladi.




5.5.7-chizma

Kesishgan chiziqning izometrik proyeksiyasini, uning nuqtalarining koordinatalari orqali quriladi (5.5.8-chizma, b).

Buning uchun ikkala prizmaning izometriyasi chizib olinadi va ularning qirralariga asoslaridan boshlab kesishgan chiziq nuqtalarining koordinatalari kompleks chizmadan o'chab olib qo'yiladi. Masalaning yechimi chizmadan ma'lum.

To'rt yoqli prizma bilan to'rt yoqli piramidaning o'zaro kesishgan chiziq'ini ham 5.5.8 9-chizmadagidek nuqtalari orqali quriladi (5.5.9-chizma, a). Masalan, kesishgan chiziqqa tegishli bo'lgan 1 va 3 nuqtalarni quyidagicha topiladi. 1 va 3 nuqtalarning frontal proyeksiyalari  $1''$  va  $3''$  nuqtalar chizmada mayjud. Bu nuqtalardan bog'lovchi chiziqlar o'tkazib, ularni mos qirralar bilan kesishitrib 1' va 3' hamda 1''' , 3''' nuqtalarni aniqlaymiz. 2,4,5,7,6,8 nuqtalarning proyeksiyalari ham xuddi shu yo'l bilan aniqlanadi.




5.5.9-chizma

5.5.9-chizma, b da kesishuvchi jismlarning to'g'ri burchakli dimetriyasi tasvirlangan. Dimetriyada 1,3,5,7 nuqtalarni topish ko'rsatilgan. 2,4,6 va 8 nuqtalar bevosita qirralarning o'zaro kesishgan joyida joylashgan.

**Silindr va konus sirtlarining o'zaro kesishuvvi**

O'qi vertikal joylashgan to'g'ri doiraviy kesilgan konus bilan gorizontall joylashgan doiraviy silindring o'zaro kesishishi 5.5.10-chizma, a da ko'rsatilgan. Silindr va konusning o'qlari O nuqtada kesishmoqda.

Avval, yuqorida ko'rsatilgan misollardagidek, chizmada kesishgan chiziqqa tegishli bo'lgan mayjud 1, 7 va xarakterli 4, 10 nuqtalar chiziqqa tegishli bo'lgan mayjud 1, 7 va xarakterli 4, 10 nuqtalar aniqlanadi. Oralig nuqtalarni aniqlash uchun o'zaro parallel bo'lgan yordamchi kesuvchi gorizontall tekisliklar o'tkaziladi. Bu tekisliklar konusni aylanalar, silindri esa yasovchilar o'zaro kesishib kesishgan chiziqqa tegishli nuqtalarni va yasovchilar o'zaro kesishib kesishgan chiziqqa tegishli nuqtalarni beradi.



Masalan, 2 nuqtaning gorizontall proyeksiyasi  $2'$  ni aniqlash uchun O markazidan R radius bilan aylana chizamiz. Bu aylana yordamchi  $P_1$  tekislikning konusni kesishidan hosil bo'лади.


2 nuqtaning profil proyeksiyasi  $2''$  ma'lum bo'lganligi uchun, u orqali bog'lovchi chiziq o'tkazamiz va uni R radiusli aylana bilan kesishitirib  $T$  ni aniqlaymiz.  $2'$  va  $2'''$  lar yordamida nuqtaning frontal proyeksiyasi  $2''$  ni topamiz. Kesishgan chiziqqa tegishli qolgan nuqtalari ham xuddi shu yo'l bilan aniqlanadi.

Gorizontal proyeksiyada kesishgan chiziqning bir qismi ko'rindi, bir qismi esa ko'rinnaydi. Ko'rinar-ko'rinnas qismlarning chegaralari silindring gorizontal ocherkida joylashadi. Kesishgan chiziqning gorizontal ocherk orqali o'tgan yordamchi  $P_3$  tekislikdan yuqorida joylashgan qismi ko'rindi, pastda joylashgan qismi esa ko'rinnaydi.

**5.5.11-chizma, b** da kesishuvchi jismlarning izometriyasi tasvirlangan. Kesishgan chiziqning izometriyasi, uning nuqtalarining kompleks chizmadan olingan koordinatalari yordamida quriladi. Ko'rileyotgan misolda har bir nuqtaning ikkita koordinatasi, ya ni  $x$  va  $y$  lari bo'lsa kifoya. Chizmada **n**, **m**, **I** kordinatalar yordamida 2 va 12 nuqtalarni aniqlash ko'rsatilgan.

**5.5.11-chizmadagi o'qlari o'zaro parallel bo'lgan to'g'ri doiraviy silindr va konuslarning kesishgan chiziq'ini qurish 11- chizmadagiga o'xshash bo'ladi.**

Bu yerda ham gorizontal vaziyatda joylashgan yordamchi kesuvchi tekisliklar o'tkazamiz. Yordamchi kesuvchi tekisliklar konusni ham, silindrni ham aylanalar bo'yicha kesib o'tadi (silindr ustidagi barcha aylanalar silindring gorizontal proyeksiyasi bilan ustma-ust tushadi). Bu aylanalar o'zaro kesishib, kesishgan chiziqqa tegishli nuqtalarni beradi. **5.5.11-chizma b** da kesishgan chiziqqa tegishli nuqtalarning izometriyasi tasvirlangan. Kesishgan chiziq nuqtalarining koordinatalari orqali qurilgan. Barcha yasashlar chizmadan ma'lum.



5.5.11-chizma

1. Aksonometrik proyeksiyalar turlarini haqida aytib bering.
2. Nima uchun izometriya deyiladi? Dimetriya-chi?
3. Qanday sharorda texnik rasmlardan foydalaniлади?

### Mashq.

1. O'qituvchi tavsivasiiga binoan detarning ikkita ko'rinishidan foydalanim, uning oddin izometriyasi keyin frontal dimetriyasi bajarilsin.
2. Detalning ikkita ko'rinishi bo'yicha uning texnik rasmini bajarish usulida uchinchini ko'rinishi aniqlansin.

### Test.

1. Standart aksonometrik proyeksiyalarda o'zgarish koeffisientlari o'zaro teng bo'lsa u ..... deyiladi.
  - A. Izometrik proyeksiya
  - B. Dimetrik proyeksiya
  - C. Trimetrik proyeksiya
  - D. Frontal dimetrik proyeksiya
2. Izometrik proyeksiyada X va Y o'qlar orasidagi burchak necha gradusga teng?
  - A.  $120^\circ$
  - B.  $90^\circ$
  - C.  $135^\circ$
  - D.  $45^\circ$
